

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

NAFISA RAXMANOVA, ILHOMJON ISMATILLAYEV

**TURKIY O‘G‘ZAKI ADABIYOTDA
“FARHOD VA SHIRIN”NING YANGICHA
TALQINI**

Monografiya

Toshkent
“Firdavs-Shoh”
2024

UO‘K

KBK

R

Raxmanova Nafisa, Ismatillayev Ilhomjon

Turkiy o‘g‘zaki adabiyotda “Farhod va Shirin”ning yangicha talqini [Matn]. Monografiya. N.Raxmanova, I.Ismatillayev. – T.: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2024-y. – 76 b.

Ushbu monografiyada Sharqda mashhur Farhod va Shirin sevgisi qissasining xalq variantlari ilmiy asosda yoritilgan. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonining xalq og‘zaki ijodiga ta’siri o‘zbek va turk folklori namunalari, xususan, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan doston misolida tahlil etilgan.

Monografiya folklorshunos va adabiyotshunos olimlar, magistrler, filologiya yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar, adabiyot fani o‘qituvchilari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

Tojixon Sobitova

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Karomat Mullaxo‘jayeva

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Gulandom Tog‘ayeva

filologiya fanlari nomzodi, dotsent v.b.

Monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti Kengashining 2024-yil 31-maydagi 10-sonli yig’ilish qaroriga muvofiq nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-0000-0-1

© N. Raxmanova, I. Ismatillayev, 2024

© “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2024

MUNDARIJA

KIRISH	4
--------------	---

I BOB. O‘ZBEK VA TURK FOLKLORIDA “FARHOD VA SHIRIN”-NING XALQ VARIANTLARI	7
---	---

1.1. O‘zbek folklorida “Farhod va Shirin”ning variantlari	7
---	---

1.2. Turk folklorida “Farhod va Shirin” mavzusi	14
---	----

1.3. Turkiy adabiyotdagi Farhod obrazining genezisi va tadriji	20
--	----

II BOB. FOZIL YO‘LDOSH O‘G‘LINING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI	33
--	----

2.1. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining hayoti va ijodi.....	33
---	----

2.2. “Farhod va Shirin” dostonining qisqacha mazmuni.....	39
---	----

2.3. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan “Farhod va Shirin” dostonining o‘zbek va turk olimlari tomonidan o‘rganilishi	44
---	----

III BOB. FOZIL YO‘LDOSH O‘G‘LI KUYLAGAN “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI POETIKASI	56
--	----

3.1. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining “Farhod va Shirin” sujetiga qo‘shgan yangiliklari	56
--	----

3.2. Dostondagi obrazlar tavsifi	61
--	----

3.3. Dostonning badiiy xususiyatlari.....	64
---	----

XULOSA	70
--------------	----

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	72
---------------------------------	----

KIRISH

Xalq og‘zaki ijodiyotining eng qadimiy turlaridan bo‘lgan baxshichilik san’ati yuksak gumanizm g‘oyalarini, tinchlik va do‘stlik,adolat va haqiqat kabi ezgu fazilatlarni mahorat bilan tarannum etadi. Shu bois ham, baxshi, oqin va jirovlar azaldan xalq qalbining kuychilari, turli millat va elatlarni birlashtiradigan olajanob insonlar sifatida ardoqlab kelinadi. Mamlakatimizda 2019-yili Respublika baxshichilik san’ati markazi hamda Baxshichilik san’atini rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etildi. Ushbu noyob san’atning umumbashariy ahamiyati Termiz shahrida 2019-yili bo‘lib o‘tgan I Xalqaro baxshichilik san’ati festivalida yana bir bor o‘z tasdig‘ini topdi. 2000-yil 14-martda esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-2562 sonli “O‘zbekiston Respublikasi xalq baxshisi” faxriy unvonini belgilash to‘g‘risida” farmoni e’lon qilindi¹.

O‘zbek folklorshunosligida baxshichilik san’atining ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini chuqur o‘rganish va o‘rgatishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada bir asr oldin fidoyi folklorshunos olimlarimiz boshlagan muhim ishlar izchil davom ettirilmoqda. Xalq dostonlarining variantlari va versiyalarini qiyosiy tadqiq etish orqali folkloarning milliy o‘ziga xosligini ko‘rsatishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Bu yo‘nalishda Janubiy O‘zbekiston dostonchiligining hozirgi holati va baxshilar repertuari, “Yusufbek va Ahmadbek”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Shirin bilan Shakar”, “Hurliqo va Hamro”, “Yozi bilan Zebo”, “Tohir va Zuhra” dostonlari variantlarining qiyosiy tavsifi, genezisi va poetikasiga oid tadqiqotlar olib borildi. Bu izlanishlar natijasida T. Mirzayevning rus tilida “Epos i skazitel”, Sh Turdimovning “Epos va etnos”, “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari”, J.Eshonqulovning “Folklor: obraz va talqin”, “Epik tafakkur tadriji” kabi yirik monografiyalari yaratildi.

Xalq ijodi namunalarini har tomonlama chuqur o‘rganish tamoyili shakllandi. Jumladan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan “Alpomish” dostonining shakllanish tarixi va poetikasi, o‘zbek xalq lirkasining

¹ <https://lex.uz/docs>

tarixiy asoslari, o‘zbek mifologiyasi, “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarining tarixiy ildizlari, tipologiyasi, badiiyati, afsona va rivoyatlar, bolalar folklori, hozirgi tarixiy-folkloriy jarayon masalalari fundamental tadqiq etildi². “O‘zbek xalq dostonlari”, “O‘zbek xalq qo‘shiqlari” nomli darsliklar yaratildi, 100 tomlik “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” majmuasi nashr etilmoqda. O‘zbekiston hukumati tomonidan milliy baxshichilik san’atini YUNESKOning nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga kiritish choralari ko‘rilmoxda.

Xorijiy davlatlarda o‘zbek xalq dostonlariga qiziqish yil sayin ortib bormoqda. Masalan, Turkiyada “Turk tili tashkiloti” tomonidan so‘nggi yillarda “Oychinor”, “Malika ayyor”, “Erali va Sherali”, “Rustamxon”, “Dalli” kabi o‘zbek xalq dostonlari ikki mamlakat olimlari hamkorligida ikki tilda chop etildi. Emine Bakar 2019-yilda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining “Farhod va Shirin”iga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotida dostonning turkcha tarjimasini ham amalga oshirdi.

Ushbu monografiyada Sharqda mashhur “Farhod va Shirin” qissasining genezisi va tadriji o‘zbek va turk folklori misolida o‘rganildi; Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostonlaridan ta’sirlangan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining, ikki asar sujetidagi ayrim voqealarni omixta qilib, yangi motivlar va qahramonlar bilan boyitib, o‘ziga xos sevgi qissasini yarata olganini ochib berish bosh vazifa qilib belgilandi.

Ma’lumki, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining “Farhod va Shirin” dostonini yozib olish va o‘rganish bevosita Mansur Afzalov nomi bilan bog‘liq. O‘tgan asrning 40-yillarida o‘zbek folklorshunoslari Nazarmat Egamnazarov (1939), M.Afzalov (1944), Muzayyana Alaviya (1945) va boshqalar tomonidan “Farhod va Shirin”ning turli variantlari yozib olindi. 1968-yilda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan doston nashr etildi. M.Afzalov 1950-yilda folklor ma’lumotlari asosida “Farhod va Shirin” dostonining xalq varianti haqida” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Dissertatsiyada Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni bilan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining shu nomdagi xalq dostoni qiyosiy ravishda

² Jo‘rayev M. Xalq ijodiyoti-bebaho qadriyat.<https://www.ziyouz.com>>maqolalar

o‘rganildi. N.Mallayev, S.Erkinov, A.Qayumovning Navoiy ijodiga bag‘ishlangan risola va darsliklarida xalq dostoni haqida umumiylar berilgan. Turk olimasi Emine Bakar 2019-yilda “Fazil Yoldaşoğlu’nun Ferhat ile Şirin hikâyesi üzerine bir inceleme” mavzusida magistrlik ishi(Yuksek lisans tezi)ni himoya qildi.

O‘tgan asrning ikkinchi yarmida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda “Farhod va Shirin” dostoniga haqqoniy baho berilmadi. “Alpomish” darajasida yozilgan mukammal asar emas”, degan noto‘gri qarash shakllandı. Istiqlolga erishganimizdan keyin ham doston qayta nashr qilinmadı. Ishqiy-sarguzasht dostonlarning go‘zal namunasi bo‘lgan ushbu doston baxshilar tomonidan “unutildi”. Ushbu monografiyani yozishda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining 1968-yilda nashr qilingan “Farhod va Shirin” dostoni tadqiqot manbayi sifatida olindi. Doston Buyuk Karimov tomonidan yozib olingan va Mansur Afzalov tomonidan nashrga tayyorlangan. Shuningdek, turk olimasi Emine Bakarning “Fazil Yoldaşoğlu’nun Ferhat ile Şirin hikâyesi üzerine bir inceleme. Yüksek lisans tezi” tadqiqotiga ham murojaat qildik.

Monografiyada keltirilgan ma’lumotlar, shubhasiz, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li ijodining, o‘zbek tinglovchisi uchun unutilgan “Farhod va Shirin” dostonining yashirin qirralarini to‘g‘ri anglashga imkon beradi. Ushbu izlanishlarimiz nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga egadir. Umid qilamizki, tadqiqot materiali oliy o‘quv yurtlarida “O‘zbek folklorshunosligi”, “O‘zbek adabiyoti”, “Navoiyshunoslik” fanlari bo‘yicha ma’ruza o‘qish, talabalarga esa seminar mashg‘ulotlariga tayyorlanish, mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish, kurs ishi yozishda qo‘l keladi.

I BOB. O‘ZBEK VA TURK FOLKLORIDA “FARHOD VA SHIRIN”- NING XALQ VARIANTLARI

1.1. O‘zbek folklorida “Farhod va Shirin”ning variantlari

Eron va turkiy og‘zaki adabiyotda Xusrav va Shirin (keyinchalik Farhod va Shirin) haqidagi badiiy asarlarning paydo bo‘lishi ildizi tarixga – Sosoniylar sulolasi tarixi va fojiasiga borib taqaladi. Xusrav II Parvez mashhur sosoniy podsholardan Anushirvonning nabirasi va Xurmuzning o‘g‘lidir. U 590-yilda taxtga o‘tirgan va 628-yilda o‘g‘li Sheruya buyrug‘i bilan qatl qilingan. Eron, Suriya, Vizantiya tarixiy xronikalarida, tarixchilar Feofilakt Simokatta, Sebeos, Tabariy asarlarida va boshqa tarixiy manbalarda berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Shirin ham tarixiy shaxs bo‘lib, Xusravning eng sevimli, eng oqila xotini bo‘lgan. Xusrav Shirinni Xujistondan saroyga olib kelganida saroy a’yonlari bu nikohni ma’qullamagan, Shirinni Xusravga nomunosib deb hisoblagan ekanlar, chunki Shirin zodagonlar xonadonidan bo‘lmagan, buning ustiga xristianlardan bo‘lgan. Bu holat saroy ig‘volarini kuchaytirib yuboradi. Faqat bir yildan keyin Shirin saroy malikasi sifatida e’tirof etiladi. Shirinning Xusrav qabri tepasida zahar ichib o‘lishi ularning sevgisini afsonaga aylantiradi.

Xusrav, Shirin va Sheruya haqida turli-tuman afsona va rivoyatlar, ertaklar, keyinchalik, hatto xalq dostonlari paydo bo‘ladi. Bular tarixiy xronikalarda va turli xarakterdagi yozma manbalardan o‘rin oladi. Natijada, G‘.Aliyev ta’kidlaganidek, Xusrav va Shirin hayotini aks ettirgan sof tarixiy asarlar qatoriga tarix bilan rivoyatlar uyg‘unlashgan ikkinchi toifa tarixiy asarlar kelib qo‘shiladi. Mana shu ikkinchi toifa manbalar Xusrav va Shirin haqida juda katta obidalarning yozilishiga zamin bo‘ldi. Yozma adabiyotda birinchi bo‘lib “Xusrav va Shirin” dostonini Abulqosim Firdavsiy yaratdi.

Dastlabki afsona va rivoyatlarda Xusrav va Shirin sevgisi, Sheruyaning padarkushligi hikoya qilinsa, keyinchalik Farhod va Besutun tog‘i, qasr va ariq, Shabdiz laqabli ot, qo‘sishchi Borbad, Shakar, Shirinning rashk tufayli Maryamni o‘ldirishi kabi epizodlar qo‘shilgan.

Farhod nomi birinchi bor "Tarixi Tabariy"da zikr etilib, uning Shirinka oshiq bo'lgani va Shirin sharafiga Besutun tog'ini kesgani hikoya qilinadi. X asrga oid bu tarixiy asarda tarix bilan xalq og'zaki ijodi uyg'unlashib ketgan. X-XI asrlarda Farhod nomi, asosan, arab va fors tillarida yozilgan g'azallarda zikr etildi. XII asrda esa uning epik obrazi yaratildi. Nizomiy, Dehlaviy, Qutb, Shayxiy dostonlarida ikkinchi darajali timsol bo'lgan Farhod Orif Ardabiliy va Alisher Navoiy dostonlaridan boshlab bosh qahramonga aylandi.

Abdurauf Fitratning fikricha, VII-X asrlarda Eronda "Xusrav va Shirin" nomli xalq dostoni va Besutun tog'iga tarixiy rasmlarni chizgan rassom haqida "Farhod – ko'hkan" afsonasi mavjud bo'lgan. Uning bir qismini Firdavsiy "Shohnoma"ga kiritgan, Nizomiy esa XII asrda bu doston va afsonani birlashtirib, sujetga yangi obrazlar qo'shgan³. G'.Aliyev ham Farhod haqidagi afsonalarning "Xusrav va Shirin" qissasiga kelib qo'shilmasdan oldin mustaqil ravishda yashab kelganini qayd etadi.⁴

Xusrav va Shirin sevgi qissasi o'zbek folklorida "Farhod va Shirin" qissasi shaklida ommalashdi. Sujeti va kompozitsiyasi jihatidan bir-biridan farq qiluvchi afsona, rivoyat, ertak va doston variantlari bor. Suv uchun kurash, samimi sevgi va sadoqat o'zbek xalqi yaratgan "Farhod va Shirin" variantlarining asosiy g'oyasi hisoblanadi. Bu variantlarning qaysi biri birinchi yaratilganini aniqlash qiyin. Bizningcha, eng qadimgi variantlaridan biri XII-XIII asrlarda Qoraqumda bino qilingan Devqal'a inshooti bilan bog'liqdir.

Devqal'a afsonasi. Professor S.P.Tolstov "Древний Хорезм" asarida XII asrda qurilgan Devqal'a obidasi va u bilan bog'liq afsonani keltiradi⁵. "Devqal'a" afsonasiga ko'ra, Farhod – me'mor va toshtarosh dev. U Xorazmshohning qizi Shirinni sevib qoladi va sovchi qo'yadi. Podsho qizini bahaybat devga turmushga bermaslik uchun, jodugar kampirning maslahatiga kirib, Qoraqum sahosining o'rtaida tosh qal'a

³ Фитрат Абдурауф . Танланган асарлар. 2-jild. - Т.: Маннавият,2000. – В.208.

⁴ Алиев Г, Легенда о Хосрове и Ширин в литературах народов Востока - Москва ,1960 .

⁵ Толстов С.П., Древний Хорезм.- Москва, 1948; Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб.- Т. , 1964 .-Б.31.

qurishni buyuradi. Farhod janubdagi tog‘lardan yelkasida tosh tashib, qal’ani qura boshlaydi. Bundan tashvishga tushgan podsho yana jodugarga murojaat qiladi. Jodugar Farhodga malikaning o‘lganini, butun Xorazm ahli aza tutib fig‘on chekayotganini aytadi. Shirinning o‘limi to‘g‘risidagi xabardan gangib qolgan Farhod: “Usiz menga yashashdan ne foyda!”- deb hali joyiga qo‘yishga ulgurmagan so‘nggi toshni osmonga uloqtiradi. Tosh Farhodning ustiga qaytib tushadi. Devni sevib qolgan Shirin fojia ro‘y bergen joyga keladi va Farhodning jasadi tepasida o‘ziga pichoq sanchib halok bo‘ladi.

Bu afsonaning boshqa xalqlardagi afsonalardan farqi shuki, Farhod tosh qal’ani tog‘da emas, toshdan asar ham bo‘lmagan cho‘lda quradi. Farhod cho‘pon yoki shahzoda emas, bahaybat dev bo‘lib, u yerosti xudosi, toshtarosh Farhodni yodga soladi. Zardushtiylik dinida Farhod - ma’bud, yerosti dunyosining xudosi, quruvchi va toshtaroshlarning homiysi bo‘lganini hisobga olsak, badiiy asarlarda toshtarosh va me’mor sifatida mashhur bo‘lib kelgan Farhod obrazining yaratilishiga qadimgi Farhod kultining prototiplik vazifasini o‘taganligi ayon bo‘ladi. Mehnat bilan bog‘liq Farhod kulti O‘zbekiston, Eron, Ozarbayjon va Turkiyada keng tarqalgan. Toshtarosh, rassom, me’mor Farhod nomi bilan afsona va rivoyatlar, ertaklar, kitobiy dostonlar yaratilgan. Bugungi kungacha bu o‘lkalarda Farhod nomi bilan ataluvchi tog‘lar, qoyalar, inshootlar, ariqlar, hatto maqbaraning mavjudligi ham bevosita Farhod kulti bilan bog‘lanadi.

Keyingi davrlarda yaratilgan xalq dostonlarida Farhod Chin xoqonining, ertaklarda Kunchiqar mamlakati podshohining, afsonalarda kambag‘al dehqonning o‘g‘li; Shirin esa Eron malikasi Mahinbonu/ Mehmene Bonuning yoki Bekobod malikasi Gulchehraning jiyani sifatida tasvirlandi.

“Farhod va Shirin” ertagi. Qadim zamonda bir podshohning qizi bo‘lgan ekan. Qizning oy desa og‘zi, kun desa ko‘zi bo‘lib, kulsa og‘zidan gullar to‘kilar, yursa oyog‘idan tilla sochilar ekan. Qiz gulbog‘da qirq qizlari bilan sayr etib yurar ekan. Nima uchundir qiz yoshligidan beri doimo g‘amgin ko‘rinar ekan. Qirq qiz Shirinning har qancha ko‘nglini olish uchun urinsalar ham o‘ynab-kulib, ochilib yurmas ekan. Bir kun

kanizaklardan biri: “Hech narsadan kamchililingiz bo‘lmasa, nima uchun doimo xafa ko‘rinasiz?” - deb so‘rabdi. Shunda Shirin: “Men o‘ynab, davron surib, kulib yursam, boshqalar qayg‘u-g‘amda bo‘lsa, undan nima foyda?” - degan javobni qaytaribdi.

Bir kun Shirin daryo bo‘yida sochini yuvib o‘tirgan ekan. Uning qoshiga bir kampir kelib: “ Qizim, qaniydi, sening bu bo‘yingga munosib yigit bo‘lsa“, - debdi. Shirin: “Men ham o‘sha siz aytgan yigitni istar edim”, - debdi. Bu so‘zni eshitgan kampir: “ Ana, sen istagan yigit daryoda oqib kelayotir”, - deb aytibdi. Shirin daryoga qarayman deganida, boshidagi tilla tarog‘i suvga tushib ketibdi. Ikkinchchi bir mamlakat podshohining o‘g‘li daryoda cho‘milayotgan ekan. Tillar taroqni tutib olib, “Shu taroqning egasi kim bo‘lsa, o‘shani olaman”, deb ahd qilibdi. Elda yurib surishtira boshlabdi. Bir kampir bu taroqning egasi Shirin ekanligini aytibdi. Yigit qizni axtarib yo‘lga chiqibdi.

Kunchiqarda bir podshoh bor ekan, uning birgina Farhod ismli o‘g‘li bo‘lgan ekan. Farhod qayg‘uga botib, g‘amgin bo‘lib yurar ekan. Bir kuni otasi o‘g‘lini qirq yigit bilan sayrga chiqaribdi. Farhodning ko‘zi tosh yo‘nayotgan ustaga tushibdi. Shu hunarga ishqiboz bo‘lib, uni o‘rgana boshlabdi. Otasi uni bu ishdan qaytarsa ham unamabdi, o‘z bilganidan qolmabdi.

Kunlardan bir kun Farhod otasining xazinasiga kirib qolibdi. Undagi tosh sandiqni ochib, oyinayi jahonnamoga qarabdi. Oynada avval Guliqahqah parini ko‘ribdi. Keyin kunbotar tomonda Shirinning arg‘imchoq uchib turganini ko‘ribdi. Qizga oshiq bo‘lib, boshidan hushi ketib yiqilgach, qo‘lidagi oyna yerga tushib sinibdi. Farhod Shirinni qidirib yo‘lga chiqibdi. Yo‘lda bir daraxtning soyasida uxbab yotgan bir yigitni ko‘ribdi. Daraxt tepasidan bir ilon tushib, yigitga zahar solay deb turganida, Farhod yugurib kelib xanjar bilan ilonni o‘ldiribdi. Yigit cho‘chib uyg‘onibdi va Farhodga: “Hozir tushimda bir kishi: “Tur, do‘sting keldi”, - deb aytdi”, - debdi va bu fojianing oldini olib qutqargani uchun Farhodga rahmat aytibdi. U bilan umrbod do‘st bo‘libdi.

Bular yo‘l yurib, Shirinning mamlakatiga yetib kelishibdi, Farhod bir tog‘ tagida bir necha ming askar to‘planib turganini ko‘ribdi, bir cho‘pondan bu askarlar kimniki ekanini bilib olibdi. Shu vaqt Shirin qirq

kanizagi bilan kelibdi. Shamol Shirinning yuzidagi pardasini ko‘taribdi. Farhod uni ko‘rib oshig‘-u beqaror bo‘lib hushidan ketibdi. Do‘sti suyab, uni o‘ziga keltiribdi. Biroq Shirin va qirq qiz ketib qolgan ekan. Farhod Shirinning qayerga ketganini so‘rabdi. Do‘sti: “Shirin shu tog‘ni kesib, suv chiqargan yigitga tegaman, deb aytdi”, — debdi. Bu so‘zni eshitgan Farhod g‘ayratga kelib, tog‘-toshni qo‘pora boshlabdi. Oxiri bu ishni tugatib, tog‘ni teshib, cho‘lga suv chiqaribdi. Do‘sti tog‘ning bir tomoniga Shirinning, ikkinchi tomoniga Farhodning rasmini chizibdi.

Bir kuni Shirin tog‘ etagida Farhod qurgan hovuzni ko‘rish uchun qirq kanizagi bilan kelibdi. Shirin mevali daraxtlar bilan bezangan obod joyni ko‘ribdi. Cho‘lni suvga serob qilib, bog‘-u bo‘stonga aylantirgan bahodir Farhodni Shirin ham sevib qolibdi. Farhodni o‘z qasriga olib borib, mehmon qilibdi. Shunday qilib, ular murod-maqсадларига yetibdilar.

O‘zbekistondagi ko‘p joylar Farhod va Shirin nomlari bilan ataladi. Bekoboddagi Shirinsoy, Farhodtog‘, Xusrav qudug‘i; Sherobod tumanidagi Shirin dahmasi, Boysun tumanidagi Bibishirin qishlog‘i bilan bog‘liq toponomik va gidronomik afsonalar mavjud. Ularda daryo suvini cho‘lga chiqarish uchun kurash hikoya qilinadi. Masalan, **Farhodtog‘** va **Shirinsoy** toponimi bilan bog‘liq ertakning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Farhod bir kambag‘alning o‘g‘li ekan. Otasi o‘limidan oldin unga bir ketmon hamda sirli qutini meros qoldiribdi va shunday deb tayinlabdi: ”Mehnat qilsang, ketmonim qorningni to‘ydiradi. Qutini esa men bilan qo‘shib ko‘m. Zinhor ochma, aks holda baxtsizlik yuz beradi”. Farhod otasining vasiyatini bajarmabdi: qiziqib qutini oolibdi. Uning ichida kichkina ko‘zgu bor ekan. Ko‘zguga qarab go‘zal bir bog‘da dugonalari bilan sayr qilib yurgan bir pari yuzli qizni ko‘ribdi va behush yiqilibdi. Do‘sti Shopur kelib qolmaganida Farhod, qo‘lida ko‘zguni ushlaganicha, o‘likdek ancha vaqt yotgan bo‘lar ekan. Farhod g‘amga botib, hech narsa yemay qo‘yibdi. Shopur bilan birga bu go‘zal qizni izlab yo‘lga tushibdi. Tog‘-u toshlardan oshib, dala-qirlarni kezib, nihoyat, Bekobodga kelishibdi.

Bekobod suvsiz bir xaroba joy ekan. Farhod atrofga qarab, hayron qolibdi. Yoz bo‘lsa-da, daraxtlar sarg‘aygan, barglari to‘kilib ketgan, xuddi kech kuzdek. Dalalar qurib, o‘simpliklar so‘lib qolgan. U yerning aholisi uch yildan beri mashaqqat chekib, tog‘- tosh kesib, Sirdaryo suvini cho‘lga oqqizish taraddudida ekan. Farhod otasidan qolgan ketmonni kuch bilan toshga uribdi: tosh qimirlamabdi, lekin ketmon ikkiga bo‘linib ketibdi. Farhod ishdan chiqqan barcha ish quollarini ustaxonaga olib kelishlarini iltimos qilibdi. Ulardan yuz kishi ham ko‘tara olmaydigan ulkan ketmon yasabdi. Ketmonini aylantirib ikki marta yerga urgan ekan, odamlar uch yilda zo‘rg‘a ochgan ariqdan uzunroq ariqni kavlab qo‘yibdi. Farhod ketmoni bilan tog‘larni titratib, mo‘jizalar yaratibdi, boshqa ustalar unga yordamga kelishibdi.

Uning ovozasi Bekobod hukmdori Gulchehra va uning jiyani Shirin ga yetib boribdi. Shirin minoradan qarab, Farhodning toshlarni juda yengillik bilan qo‘parayotganini ko‘ribdi va xolasini sirli qahramonni ko‘rib kelishga ko‘ndiribdi. Farhod ishiga shunchalik berilib ketgan ekanki, Gulchehra Sulton bilan Shirinning qanday yetib kelishganini payqamay qolibdi. Shamol malikaning yuzidagi pardani ochib yuborganida, Farhod ko‘zguda ko‘ringan qiz Shirin ekanini bilibdi va “Oh!” deb hushidan ketibdi. O‘ziga kelib, Shirindan ko‘zini uzolmay qolibdi. Shirin uyalib, otiga qamchi uribdi. Chopib ketayotgan ot toshga qoqilib, oqsoqlanibdi. Buni ko‘rgan Farhod yugurib borib Shirinni oti bilan birga yelkasiga ko‘tarib olibdi va ularni saroyga olib borib qo‘yibdi. Malikalar Farhodning sharafiga ziyofat beribdilar.

Shirinning husn-u jamoli ta’rifini eshitgan Eron shohi Xusrav sovchi yuboribdi. Gulchehra Shirin hali yosh deb rad javobini bergen ekan, Xusrav g‘azablanib, Bekobodga qo‘shin tortibdi. Toshotar Farhodning tog‘dan qulatgan toshlari qo‘shinga katta zarar yetkazibdi. Shunda Xusrav vazirning maslahati bilan hiyla yo‘liga o‘tibdi: “Kim Mirzacho‘lga birinchi suv chiqarsa, Shirin o‘shanga tegsin” deb, Shirinning shartini eslatibdi. Farhod zo‘r berib ishini davom ettiribdi. Ayyor vazir tunda Mirzacho‘lga bo‘yra yozdiribdi. Bo‘yralar oy nurida tovlanib, suvdek mavj beribdi. Shirin noiloj Xusravning taklifiga ko‘nidbi, unga xotin bo‘libdi, lekin tong otganidan keyin aldanganini bilibdi. Uning odamlari

Xusravning oldiga borib hisob so‘rashganida kuchli jangchilari qurshovida turgan Xusrav qah-qah otib kulibdi. Aldangan Shirin ko‘z yoshlarini to‘kib, Farhod tomon yo‘l olibdi.

Farhod tuni bilan tosh qo‘porib, daryoga otibdi va tongda daryoning yo‘lini to‘sishga muvaffaq bo‘libdi. “Shirin qani? Kelib, mening ishimni ko‘rsin”, - deganida hamma bosh egib, jim qolibdi. Faqat tong shamoli g‘amgin shivirlabdi: “Farhod, Farhod, Shirin Xusravga xotin bo‘ldi. Xusrav uni aldadi, Shirin uni sevmaydi!” Xusravning hiylasini eshitgan Farhod ham Shirinning yoniga jo‘nabdi. O‘rtada Sirdaryo oqib yotgan ekan. Oshiq – ma’shuq ikki tomonda qolibdi. Shunda Farhod Shiringa qo‘lini cho‘zgan ekan, tog‘ga aylanib qolibdi. Shirin ko‘z yoshi to‘ka berib, soyga aylanibdi. O‘shandan beri kishilar bu tog‘ni Farhodtoga, soyni Shirinsoy deb atar ekanlar⁶.

Mazmuni shunga o‘xshagan boshqa bir ertakda Xusravning hiylasini eshitgan Farhod o‘zini halok etadi. Farhodning o‘limiga chiday olmagan Shirin ham o‘zini o‘ldiradi. Bu ertaklarning Navoiy dostoni asosida vujudga kelganiga shubha yo‘q.

Fors va turkiy tilda yozilgan “Xamsa” dostonlari sujeti XV asrdan boshlab baxshilar tomonidan o‘zlashtirildi hamda ishqiy-sarguzasht, ishqiy-qahramonlik va kitobiy dostonlarning yaratilishiga zamin bo‘ldi. Ma’lumki, badiiy asarga bo‘lgan munosabat vaqt o‘tishi bilan ijtimoiy-siyosiy formatsiyaga bog‘liq tarzda o‘zgaradi. Masalan, XIX asrning boshlarida Umar Boqiy tomonidan Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlarining xalq qissalari yo‘lidagi nasriy bayoni yaratilgan. Umar Boqiy Navoiy dostonidagi eng asosiy voqealar va epizodlarni saqlab qolib, Farhod va Shirinning murakkab va to‘laqonli sarguzashti bilan kitobxonlarni tanishtirishni maqsad qilib oldi. Shu maqsadda u mazmunan bir-biriga yaqin boblarni bir sarlavha ostiga birlashtiradi⁷. Umar Boqiy o‘z davri kitobxonlarining saviyasini nazarda tutib ish tutgan. Ushbu kitob oradan qariyb bir asr o‘tib, 1909-yilda shoir

⁶ Mallayev,Natan.O‘zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob.XVII asrgacha. T.:O‘qituvchi,1976.-B.458.

⁷ Mallayev N.,”Farhod va Shirin”ning Umar Boqiy tomonidan ishlangan xalq kitobi variant// Adabiy meros, 1973, 3-son, B. 135-146.

Xislat tomonidan suratlar bilan qayta nashr qilinadi. O‘sha yili toshkentlik Mir Maxdum ibn Shohyunus tomonidan “Hayrat ul-abror” dostonidan tashqari, barcha dostonlar nasrga aylantirilib, “Xamsayi nasri benazir” nomi ostida suratlar bilan birga chop qilingan⁸. Mahzunning “Qissayı shahzoda Farhod va Shirin”i ham Navoiy dostonining nasriy bayoni hisoblanadi.

XX asrning birinchi yarmida mumtoz o‘zbek adabiyoti durdonalari, xususan, Nizomiy, Dehlaviy va Navoiy “Xamsa”si bilan yaxshi tanish bo‘lgan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li esa “Farhod va Shirin” hamda “Layli va Majnun” dostonlarining soz jo‘rligida ijro etiladigan folklor variantini yaratdi.⁹

1.2. Turk folklorida “Farhod va Shirin” mavzusi

Turk folklorshunoslari Turkiya va Ozarbayjonda tarqalgan Farhod haqidagi afsona va ertaklarni devon adabiyoti ta’sirida paydo bo‘lgan deb hisoblaydilar. Nizomiy dostonida “doston ichida doston” shaklida berilgan Farhod va Shirin qissasini Orif Ardabiliy va Alisher Navoiy mustaqil dostonga aylantirdilar. Boyazid II ning o‘g‘li Shahzoda Qo‘rquq - Harimiyning “Farhod va Shirin” masnaviysi, Lami’iyning “Farhodnama” (“Farhod va Shirin”) masnaviysi¹⁰, Sulaymonshoh davrida yashagan Shomiyning “Farhodnama”si Onado'luda sevib mutolaa qilindi. Farhodning pok sevgisi xalq adabiyotiga ertak, rivoyat, doston, xalq dramasi shaklida kirib keldi. Qissa devon adabiyotidan xalq adabiyotiga o‘tishda jiddiy o‘zgarishlarga uchradi va ko‘plab variantlari yaratildi. Bunga asos Nizomiy fantaziyasining mahsuli bo‘lgan arman malikasi Mehinbonu obrazining xalq hikoyalarida Xuroson malikasi Mehmene Bonu tarzida ishtirok etishidir. Onadolu va Ozarbayjonda

⁸ Eshonboyev A., “Xamsa” va adabiy retsepsiya muammosi// O’zbek tili va adabiyoti, 1-sون, 2020.- B.55.

⁹ Эркинов С. Навоий «Фарҳод ва Ширин»и ва унинг қиёсий таҳлили.- Т., «Фан», 1971.- Б.268

¹⁰ Lami’iyning “Farhodnama”si Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonining usmonli turk tiliga erkin tarjimasi bo‘lib, asar Yovuz Sulton Salimga juda xush kelgan. Shoiring mehnatini yuksak taqdirlab, unga bir qishloqni sovg‘a qilgan.

aytilgan xalq dostoni va afsonalarda voqeа Xurosonda boshlanib, Amasyada davom etadi. Yozma adabiyotda Mehinbonuning jiyani bo‘lgan Shirin bu yerda uning singlisi sifatida ishtirok etadi. Eron hukmdori bo‘lgan Xusrav Amasya hukmdori Xurmuzshohning o‘g‘li shahzoda Xusravga aylangan.

“Farhod va Shirin” turk xalq ertagining qisqacha mazmuni quyidagicha: Xurosondagi bir shaharning hukmdori Mehmene Bonu o‘n besh yoshli singlisi Shiringa go‘zal saroy qudirib, bu qasrning bezaklarini rassom Behzod va uning o‘g‘li Farhodga topshiradi. Bir kuni saroya tashrif buyurgan Shirin Farhodni ko‘rib, sevib qoladi. Xuddi shunday, Farhod ham Shiringa bir ko‘rishda oshiq bo‘ladi. Saroy bitgach, Shirin Mehmene Bonuga saroyi oldidan ariq oqishini istayotganini aytadi. Mehmene Bonu jarchilarni to‘rt tarafga jo‘natib, kimki Shirinning orzusini amalga oshirsa, o‘sha kishining har bir istagini bajo keltirishini bildiradi. Farhod Mehmene Bonuga yaqin atrofdagi Besutun tog‘ini teshib, tog‘ning narigi tomonidagi buloq suvini qirq kunda saroy oldidan oqizishini aytadi. Farhod o‘ttiz to‘qqiz kunda ishni uddalaydi. Farhodga saroydan xona ajratiladi va uning har bir istagi amalga oshiriladi. Mehmene Bonu ham Farhodni yaxshi ko‘rib qoladi. Bir muncha vaqt o‘tgach, Mehmene Bonu Farhod va Shirin o‘rtasidagi muhabbatdan ogoh bo‘ladi va sir saroydan tashqariga chiqmasin deb, ularning uchrashuviga guvoh bo‘lgan kanizakni qatl ettiradi, Farhodni esa Demir Qal‘a (Qal‘a-i Ohanin)ga zanjirband qiladi. Biroq tushiga yuzidan nur yog‘ilib turgan pir kiradi va Farhodni ozod qilishni talab qiladi. Qo‘rqib uyg‘ongan Mehmene Bonu Farhodni ozod qiladi va mehnatini 1000 oltin tanga bilan taqdirlaydi.

Farhod tillalarni kambag‘allarga tarqatib, o‘zi dala-qirga chiqib ketadi, tog‘larda sarson kezadi, yirtqich hayvonlar bilan do‘stlashadi. O‘ziga maskan qilgan g‘or devorlariga Shirinning suratlarini chizib, tasalli topishga harakat qiladi. Farhodning bu holatidan xabar topgan Amasya hukmdori Xurmuzshoh Mehmene Bonuga urush e’lon qiladi va uni mag‘lub etadi; Farhod Shirinni Amasyadagi qarorgohga olib boradi. Bu orada Shirinni ko‘rgan Xurmuzshohning o‘g‘li Xusrav uni sevib qoladi. Otasining taqiqlashiga qaramay, o‘z sevgisidan voz kechmaydi.

O‘ta og‘ir ahvolda qolgan Xurmuzshoh enagadan bu muammoga yechim topishni so‘raydi. Natijada, Farhodning Shirining uylanishi uchun qirq kun ichida tog‘ning narigi tomonidagi suvni shaharga olib kelish shart qilib qo‘yiladi. Farhod bu shartni qabul qiladi va tog‘ni teshib, shaharga suvni ochmoqchi bo‘lganida, azadorlar kiyimini kiyib olgan enaga ko‘zida yosh bilan keladi va Shirinning o‘lganini aytadi. Bu xabardan so‘ng Farhod “Shirin o‘lganidan keyin men qanday yashayman” deb, teshasini havoga uloqtirib, uning ostiga boshini tutib beradi va o‘z joniga qasd qiladi. Farhodning o‘lganini eshitgan Shirin darhol ariqning boshiga keladi, Farhodning jasadini ko‘rib belidagi xanjarni ko‘ksiga sanchadi. Vaziyatdan xabar topgan Xurmuzshoh enaga bilan voqeа joyiga yetib boradilar. Bu orada tog‘dan tushayotgan sher enagani parchalab tashlaydi. Farhod va Shirinning o‘limidan juda qayg‘urgan Xurmuzshoh, bu dunyoda birlasha olmagan ikki oshiq uchun katta janоза uyuştiradi va ularni bir qabrga qo‘ydiradi. Aytılıshicha, har bahorda bu qabrdagi o‘sadigan ikkita chiroyli qizil va oq atirgul orasiga shafqatsiz enaga qora buta shaklida suqilib kirar, ularning birlashishiga to‘sinqilik qilar ekan¹¹.

Turk folklorida Farhod va Shirin sevgisi haqidagi ertaklar qaysi hududda aytılıshiga ko‘ra farqlanadi. Eng qizig‘i shundaki, bu ertak va afsonalar ham, xuddi o‘zbek folkloridagi kabi, Onado‘ludagi, xususan, Amasya va Erzurumdagи kanal, bino va joy nomlari bilan bog‘liq.

“Farhod va Shirin” turk xalq qissasining (halk hikayesi) sujeti “Farhod va Shirin” ertagi sujetiga o‘xshab ketadi. Farq quyidagi epizodlarda ko‘rinadi: 1) Mehmene Bonu 13-14 yoshli jiyani Shirin uchun yetti xonali qasr qurdiradi. Xonalar oq, moviy, ol, sariq, qirmizi, yashil va qora rangda bo‘lib, saroy a’yonlari xonaning rangiga qarab kiyanganlar; 2) Shirin naqqosh Farhodga oltin apelsin va limon otib, sevgisini izhor qiladi; 3) Shirin hushidan ketgan Farhodning yuzidan bo‘sа olib, ilk she’rini yozadi; 4) Mehmene Bonu o‘zi uchun ham kichik bir qasr qurdiradi, uning ham bezaklarini naqqosh Behzod va uning kelishgan o‘g‘li Farhod amalga oshiradi; 5) Mehmene Bonu tog‘ tepasidagi quduqning shirin suvini ariq ochib qasrga keltirgan odamga

¹¹ <https://www.turkedebiyati.org/ferhat-ile-sirin-efsanesi/>

istaganini muhayyo qilishini aytadi; 6) Farhod eshik og‘asi bo‘lishni orzu qilgani uchun bu ishga rozi bo‘ladi; 7) solih kishilar kelib Farhodni duo qiladilar, Farhod oh tortganida og‘zi-burnidan olovlar chiqqanini xalq ko‘radi; 8) Farhod zindonda ishqiy qo‘shiqlar kuylab, eshitgan insonni yig‘latadi; 9) Shirin ga tushida bir pir Farhodning kelayotgani haqida xabar beradi; 10) Behzodga odamlar o‘g‘li Farhodning majnunsifat holda bir daraxt tagida o‘tirganini xabar berishadi; 11) Behzod: “Hajringda onang yig‘layverib ko‘zlari ko‘r bo‘ldi”, -desa ham, Farhod uyga qaytishni istamaydi; 12) oshiq Farhod Xurmuz shoh saroyida soz chalib, qo‘sinq kuylaydi; 13) Farhodga tushida bir pir jangda g‘olib bo‘lish sirlarini o‘rgatadi; 14) jangda Xurmuzshoh ham, Mehmene Bonu ham sehrgarlar yordamidan foydalanadilar; 15) Tantana jodugar Xusravning ustiga suv sepib, uni ayiqqa aylantirib qo‘yadi; 17) Farhodning o‘zini o‘ldirganini kanizagi Gulbeyazdan eshitgan Shirin hushidan ketadi va Gulbeyaz kanizakka: “O‘lsam, kiyimlarimni taxt ustiga qo‘yib, Mehmene Bonuga jo‘nating, o‘zimni esa Farhodning yoniga ko‘minglar”, -deb vasiyat qiladi; 19) yirtqich hayvonlar enagani parchalab tashlaganida, uning bir tomchi qoni Farhod va Shirinning o‘rtasiga sachraydi; 20) Shirinning o‘limidan xabar topgan Mehmene Bonu qora kiyib, qirq kun motam tutadi.

Turk xalq hikoyalari mavzusiga ko‘ra to‘rt guruhga ajratiladi:

- 1) Sharqiy va Janubi-Sharqiy Onado‘ludagi hayotiy voqealar haqidagi hikoyalari;
- 2) hayotda yashab o‘tgan oshiqlar haqidagi hikoyalari;
- 3) xalq qahramonlari haqidagi hikoyalari;
- 4) nazm yoki nasrda yozilgan klassik hikoyalari.

“Farhod va Shirin” xalq hikoyalari to‘rtinchchi guruhga kiradi. Ularda nazmga ko‘ra nasriy qism ustunlik qilgani uchun doston va roman o‘rtasidagi ko‘prik janr ham deyiladi .

“Farhod va Shirin” turk xalq dostonida voqealar nasr va nazmda bayon qilingan bo‘lsa-da, soz jo‘rligida hikoya qilinmaydi. Qissago‘ylar o‘qib beradigan kitobiy dostonlar shaklida tarqalgan bo‘lib, undagi she’rlar asosan aruzda bitilgan. Mutaxassislarining ta’kidlashicha, nazmiy qismda Fuzuliy she’rlaridan namunalarni ham ko‘rish mumkin. Uning eng qadimgi toshbosma nusxasi 1854-yilda Istanbulda nashr qilindi.

1930-yilda Sulaymon Tevfik O'zzorluo'g'lu dostonni lotin alifbosiga o'girib, chop etti.

O'zbek va turk folklorida yaratilgan afsona va ertaklarda Farhod va Shirin sevgisi, asosan, makr tufayli fojiali yakun topadi. Lekin "o'rta o'yin" va "soya teatri (onus xayol)" deb ataluvchi turk xalq teatri repertuaridagi asarlarda Farhod va Shirin qissasi sevgi va sadoqat tantanasi bilan yakunlanadi. "Hajivat va Karago'z" - ikki o'lchovli tasvirlar bilan ekranda o'ynaladigan taqlid va suhbatga asoslangan soyalar tomoshasidir. Soya teatri qahramonlari kartondan, qalin charmdan yoki yog'ochdan yasalgan qo'g'irchoqlar hisoblanadi. Ularning soyasi chiroq yordamida bo'yi 1 metr, eni 60 sm bo'lga pardaga tushiriladi. O'tmishda bo'z mato parda vazifasini bajargan. O'yinda so'zlovchining o'zgarishi bosh harakatlari bilan amalga oshiriladi.

Turk olimlarining ta'kidlashicha, soya teatri Onado'luda XIV asrdan beri mavjud. Uning vatani O'rta Osiyo hisoblanadi. Soya teatrining ikkita bosh qahramoni mavjud bo'lib, xalq orasida "Karago'z o'yinlari" nomi bilan mashhur bo'lgan. Temirchi Karago'z - o'qimagan, lekin zukko, xushchaqchaq, hazilkash, ko'ngli ochiq inson. Ba'zan qo'pol muomalada bo'ladi. Hajivat esa madrasa ta'limini ko'rgan ziyoli, so'fi, Usmonli kiborlar sinfining vakili, ayni damda nasha chekishni yaxshi ko'radigan shaxs.

Soya teatri tomoshasi ikki qismidan: muhovara (suhbat) va fasl (o'yin)dan tashkil topadi. Tomosha mavzulari hayotiy voqealardan, masal va hikoyatlardan, shuningdek, Devon adabiyotidagi dostonlardan olingan, shulardan biri "Farhod va Shirin" sujetidir.

Tomoshabinlar qurshovida raqs, musiqa va qo'shiq jo'rligida ijro etiladigan o'rta oyin xalq tomoshalari XV asrlarda paydo bo'lgan. "Kol oyunu, Zuhuri kolu, Meydan oyunu" nomlari bilan mashhur bo'lgan. Uning qahramonlari tirik aktyorlar bo'lib, xarakteriga ko'ra bosh qahramonlar Pishekar va Kavuklu Hacivat bilan Karago'zga o'xshab ketadi.

"Xoin volida" asarida voqealar Istanbulda, turk mahallasida kechadi. Sarguzasht har doimgidek Karag'ozning uyi oldida sodir bo'ladi. Karago'zning uyi oldida tuproq uyumi, Hacivat tomonida qasr ko'rinadi.

Karag‘oz buning sababini so‘raganida Hajivat Amasyada yashovchi savdogarning qizi go‘zal Shirin bilan naqqosh Farhod sevgisi haqida hikoya qilib beradi. Uning aytishicha, Karago‘z ko‘rgan qasr Shirinning saroyi, tepalik esa Elmadag‘i bo‘lib, uni Farhod burg‘ulashi kerak edi. Asarning qisqacha mazmuni quyidagicha: Bir savdogar go‘zal qizi Shirinka atab qasr qurdiradi. Qasrga bezak berish ishlarini rassom Behzodning o‘g‘li naqqosh Farhod bajaradi. Uning ishlarini tomosha qilishga kelgan Shirin Farhodni sevib qoladi. Shirinka befarq bo‘lмаган Farhod dardini Hajivatga aytadi. Keyin Hajivat Shirinning onasinikiga boradi va Farhod nomidan sovchi bo‘lib kelganini aytadi. Ona bu iltimosni boshida butunlay rad etsa-da, oxir-oqibat Amasyadagi Elmadag‘ini teshib, suv tanqisligidan qiynalayotgan shaharga suv olib kelsa, qizini unga berishi mumkinligini aytadi. Farhod Karago‘z yasab bergen asbob bilan tog‘ni teshadi va shaharga suv olib keladi. Biroq qizini Farhodga berishni istamagan ona uning oldiga qizi Shirinning o‘lganini xabar qilish uchun xizmatkorini yuboradi. Farhod qattiq qayg‘uga botib, xabarchini o‘ldiradi. O‘z joniga qasd qilmoqchi bo‘lganida, Shirin yetib keladi va ikki sevishgan o‘z maqsadiga erishadi¹².

O‘rtalarda sujet yana-da sodda ko‘rinishga ega. Shirinning saroyini bezash uchun naqqosh-rassom qidiriladi. Pishekarning Kavuklu uchun ochib bergen ustaxonasiga turli viloyatlardan kelgan ustalar murojaat qilishadi. Farhod eng munosib naqqosh sifatida tanlanadi. Farhod darhol ishga kirishadi. Uning rasmlarini tomosha qilish uchun Shirin saroyga keladi. Ikki yosh bir-birini yoqtirib qolishadi. Ona kuyovlikka nomzodning oldiga qiyin shart qo‘yadi: Farhod Elmadag‘ini teshib, ichimlik suvi tanqisligidan qiynalayotgan shaharga suv olib kelishi kerak edi. Farhod Kavuklu bergen asbob bilan tog‘ni teshadi. Shu payt uning oldiga bir qari kampir kelib, Shirinning o‘lganini aytadi, lekin yolg‘on tezda oshkor bo‘ladi: ikki yosh to‘yga tayyorgarlikni boshlab yuborishadi.

Soya teatri qahramonlari Karago‘z va Hajivat o‘yinlarida baxtli yakun topadigan ”Fasli Farhod”, ”Farhod va Shirin yoki xoin volida” deb

¹² Farhad ve Şirin efsanesi. <https://tr.wikipedia.org>.

ataluvchi asarlar sujeti o‘rta o‘yindagi shu nomdagi sujetlardan keskin farq qilmaydi. Har ikkalasida Farhod naqqosh usta, Shirin uchun qurilayotgan qasrning bezak ishlarini bajaradi. Har ikkalasida Farhod Elmadag‘ini teshib Amasya shahriga suv keltiradi. Shirinning o‘limi haqida xabar keltirgan shum kampirning nayrangiga qaramay, ikki sevishgan murodiga yetadi. Har ikkalasida Mehmene Bonu, Xurmuzshoh va Xusrav obrazlari ishtirok etmaydi, chunki xalq tomoshalarida o‘yin matnining qisqa bo‘lishi talab etiladi.

1.3. Turkiy adabiyotdagi Farhod obrazining genezisi va tadriji

“Xusrav va Shirin” yoki “Farhod va Shirin” qissasi fors-tojik va turkiy adabiyotning eng sevimli sevgi qissalaridan biridir. Uning bosh qahramoni Xusrav Parvez - tarixiy shaxs bo‘lib, milodiy 590-yilda taxtga chiqib, 628-yilda o‘z o‘g‘li Sheruyaning buyrug‘i bilan o‘ldirilgan Eron shohidir. Xusravning Shiringa bo‘lgan muhabbatni ko‘pgina tarixiy asarlarda qayd etilgan. Navoiyshunos Sodir Erkinovning ta’kidlashicha, tarixiy Farhod shaxsi haqidagi ilk ma’lumot X asr tarixchisi Muhammad Bal’amiyning “Tarixi Tabariy” asarida uchraydi: “Xusravning Shirin ismli kanizi bor edi. Farhod unga ko‘ngil qo‘yib, uning uchun Besutun tog‘ini qazishga kirishgan edi. Farhod tomonidan qo‘porilgan har bir tosh ushog‘ini o‘n kishi, balki yuz kishi o‘rnidan qimirlata olmaydi. U hozir ham turibdi”¹³.

“Parveznama”da yozilishicha, Kirmonshoh shahri yaqinidagi Toqibo‘ston qishlog‘ida qoyaga Parvezning Shabdez laqabli otining rasmi solingan va bu vazifani rumlik Samsarning o‘g‘li Kitusga sipohbad Farhod buyurgan¹⁴. “Mujmal at-tavorix va-l kisas”ning noma’lum muallifi Xusrav haramidagi o‘n ikki ming kanizak, Rum imperatorining qizi Maryam, Bahramduxt, Gurduya va sohibjamol Shirin haqida ma’lumot berib, sipohbad Farhod Shiringa oshiq bo‘lib qolgani uchun Xusrav unga eng og‘ir jazoni – Besutun tog‘ida to‘xtab qolgan ishni tugallab qo‘yishni

¹³ Эркинов С. Навоий «Фарход ва Ширин»и ва унинг қиёсий таҳлили.- Т., «Фан», 1971. – Б.24.

¹⁴ Луконин В. Г. Древний и ранне-средневековый Иран, М.: Наука, 1970.- С.189

topshirdi, deydi. XVII asrda yashagan Avliyo Chalabiy “Sayohatnama” asarida Amasyada baland tog‘ tepasida musulmon bo‘lib vafot etgan amalikalik ko‘hkan va binokor Farhodning qabrini ko‘rganini, uning tarixiy shaxs bo‘lganini qayd etib o‘tgan¹⁵.

Badiiy adabiyotda Xusrav va Shirin muhabbatni haqida birinchi bo‘lib Firdavsiy o‘zining “Shohnoma”sida yozib qoldirdi. Ma’lumki, Eron shohlari tarixini yozishni asosiy maqsad qilib olgan Firdavsiy Shirinni Xusrav Parvez hayotidagi bir epizodik obraz sifatida tasvirlagan. Shuning uchun ishq bobida Xusravning raqibi bo‘lgan sipohbad va ko‘hkan Farhodni tilga olmagan.

XI asrda eronlik shoir Sanoiy xalq ichida tarqalgan Xusrav va Shirin afsonasini qayta ishlab bir masnaviy yozadi. Nizomiy esa “Shohnoma”dagi qahramonlik dostonining bir qismi bo‘lgan sevgi tarixini alohida Xusrav-Shirin-Farhod uchligi qissasi shaklida ishqiy-sarguzasht doston holiga keltiradi. Nizomiy dostonidagi Fahod - xalq orasidan chiqqan, kelib chiqishi noma'lum toshyo‘nar usta. Muallif tarixiy haqiqatni o‘zgartirish orqali o‘quvchilarga ikki xil tabaqaga mansub insonlarning insoniy muhabbatga munosabatini ko‘rsatish va Xusrav-Shirin sevgisining ziddiyatli, ehtiroslarga boy bo‘lishiga erishgan. Natijada, ishqdan boshqa quroli bo‘limgan ko‘hkan Farhod xalqning sevimli qahramoniga aylandi. O‘quvchi bosh qahramon shoh Xusravni emas, xalqdan chiqqan toshyo‘narni o‘ziga yaqin oldi - aslida Nizomiyning maqsadi ham shu edi.

Nizomiy to‘rtta sababga ko‘ra Xusravni o‘zining dostoniga bosh qahramon qilib olgan, deb ta’kidlaydi ozarbayjonlik nizomiyshunos olima F.V.Musayeva. *Birinchi sabab*: tarixiy hujjatlarda qayd etilishicha, Xusrav II ning uchinchi xotinining ismi Shirin bo‘lgan.

Ikkinci sabab: “Adabiyot - jamiyat ko‘zgusi“ tamoyiliga amal qilgan Nizomiy “Hukmdor qanday bo‘lishi kerak?” degan savolga javob berib, shahzodalarni tarbiyalashga qaratilgan didaktik asarni yaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qoysan.

¹⁵ Мусаева Ф. В. Выбор Низами Гянджеви: Фархад и Хосров, Вчені записки ТНУ імені Б. І. Вернадського. Серія: Філологія. Журналістика - Том 33 (72). № 1. Ч. 3. 2022. - С.50

Uchinchi sabab: Nizomiyning “Shohnoma”ga, devon adabiyoti an’analariga sodiqligi.

To ‘rtinchi sabab: Nizomiyning payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ga va uning diniga bo‘lgan buyuk muhabbatidir¹⁶. Islom tarixiy manba’larida qayd etilishicha, Xusrav II Muhammad (s.a.v) ning Islomga da’vat qilib yozgan maktubini yirtib tashlagan va payg‘ambarga hurmatsizlik ko‘rsatgani uchun jazolangan: o‘g‘li tomonidan o‘ldirilgan, Sosoniylar davlati inqiroziga sababchi bo‘lgan.

Oltin O‘rda hududida yashagan Qutb Xorazmiy 1340-yilda Nizomiyning fors-tojik tilida yozilgan dostonini turkiy tilga tarjima qilib, hikoyaning turkiy adabiyotga kirib kelishiga sababchi bo‘ldi. Shuningdek, turkiy shoirlar orasida Nizomiyya ergashib “Xusrav va Shirin” dostonini yozish an’anasini boshlab berdi. Turk olimlari F.K.Temurtash (Timurtaş, 1980, s.71-80), O‘.K.Tavukchu (Tavukçu, 2000, s.148), Sibel Ust (Ust, 2004, s.48) ishlarida yigirma to‘rtta turkiy shoirning “Xusrav-u Shirin”/”Farhod va Shirin” dostonini yaratgani qayd etilgan.

Alisher Navoiy Qutb, Shayxiy dostonlarida ikkinchi darajali timsol tarzida talqin qilingan Farhodni dostonning bosh qahramoniga aylantiradi. Navoiy beshta sababga ko‘ra Farhodni bosh qahramon qilib oldi hamda sujet va g‘oya nuqtayi nazaridan butunlay yangi “tarhi toza” dostonni yaratdi.

Birinchisi, o‘zining muhabbati, bu ishqning alam va iztiroblarini soliki majzub Farhod timsolidha ko‘rsatib berish.

Ikkinchisi, bu doston Xusrav Dehlaviy dostoniga tatabbu’ bo‘lgani uchun Chin xoqonining o‘g‘li Farhod misolida komil inson tarbiyasi mavzusini yoritib berish.

Uchinchisi, Farhodning dard to‘la mashaqqatli hayoti, pok ishqini va fojiali o‘limi orqali pok insoniy sevgi haqidagi qarashlarini izhor qilish.

To ‘rtinchisi, shoirning diniy e’tiqodi, solik musulmon ekanligi. Zardushtiylik diniga e’tiqod qilgan Xusravning yangi payg‘ambarning Islomga da’vat qilib yozgan maktubini yirtib tashlab, Muhammad

¹⁶ Мусаева Ф. В. *Выбор Низами Гянджеви: Farhad и Хосров*, Вчені записки ТНУ імені В. І. Вернадського. Серія: Філологія. Журналістика - Том 33 (72). № 1. Ч. 3. 2022. - С.52

(s.a.v.)ga hurmatsizlik qilgani tarixiy manbalarda, shuningdek, Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asarida bayon qilingan¹⁷.

Beshinchisi, Navoiyning siyosiy e’tiqodi. Husayn Boyqaro o‘g‘illariga komil inson Farhodni namuna qilib ko‘rsatish; Sheruya misolida padarkushlik, birodarkushlik oqibatlaridan ogohlantirish.

Mumtoz adabiyotdagi “Husrav-u Shirin” nomli masnaviyning bir qismi bo‘lgan Farhod va Shirin qissasi og‘zaki adabiyotga yozma matnlar (qo‘lyozma, toshbosma va xalq kitoblari) orqali ham o‘tgan. Qissaning og‘zaki adabiyotga o‘tishi bilan qahramonlar taqdiri makon va zamonda sezilarli o‘zgarishlarga uchragan ko‘plab variantlari vujudga keldi. Tarixiy va geografik doirasi tufayli Anadoluga moslashtirilgan “Farhod va Shirin” qissasi Anadolu turklari orasida yozma va og‘zaki shaklda juda mashhur edi. Kamoliddin Behzodning o‘g‘li Farhod va Xuroson malikasi Shirin qissasi Karago‘z, o‘rta o‘yin, maddohlik kabi an’anaviy xalq teatri san‘ati; XX asrga kelib opera, balet, teatr va kino kabi zamonaviy san‘atning sevimli mavzusiga aylandi.

Xuddi shunday manzarani o‘zbek folklorida ham kuzatish mumkin. A.Navoiyning “Xamsa”si sujeti baxshilar tomonidan o‘zlashtirildi hamda ishqiy-sarguzsht va kitobiy dostonlarning yaratilishiga xamirturush vazifasini o‘tadi. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining “Farhod va Shirin” dostonida Farhod Chin xoqonining, ertaklarda Kunchiqar mamlakati podshohining, afsonalarda kambag‘al dehqonning o‘g‘li; Shirin esa Eron malikasi Mahinbonuning yoki Bekobod malikasi Gulchehraning jiyani sifatida tasvirlangan. XIX asrning oxiri XX asrning birinchi yarmida o‘zbek adiblari yana Farhod va Shirin sevgi tarixiga murojaat qila boshladilar. Umar Boqiy, Mir Maxdum ibn Shohyunus, Mahzunning nasriy qissalari, Xurshid va Komil Yashinining “Farhod va Shirin” dramalari yaratildi va sahnalashtirildi.

Farhod nomi bilan bog‘liq o‘zbek va turk xalq afsonalari, ertaklari, kitobiy dostonlari yozma adabiyotdagi variantlaridan quyidagi belgilariga ko‘ra farqlanadi:

¹⁷ Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик. 14-том. Тарихи мулукки Ажам. - Тошкент: Гафур Гулом нашриети, 1967.- Б. 230.

1. Farhod – 1) dev; 2) cho‘pon; 3) dehqon; 4) rassom Behzodning naqqosh o‘g‘li; 5) Kunchiqar mamlakati shahzodasi; toshtarosh, me’mor va qo‘ligul naqqosh.

2. Farhod ko‘kka o‘zi irg‘itgan xarsang tosh yoki tesha tagida qolib halok bo‘ladi, o‘zbek folklorida xarsang toshga aylanib qoladi.

3. Farhodning o‘limidan keyin Shirin o‘zini doim yonida olib yuradigan xanjari bilan o‘ldiradi. Farhod va Shirin bir qabrga qo‘yiladi. Ularning qabridan qizil va oq gullar o‘sib chiqadi.

4. Voqealar Xusrav Parvez hukmronlik qilgan davrda emas, uning otasi Hurmuzshoh davrida ro‘y beradi.

5. Armanzamin malikasi Mehinbonu afsonalarda qahri qattiq Xuroson malikasi yoki Erzen hokimi Mehmene Bonuga, o‘zbek folklorida Bekobod sultonı Gulchehrabonuga aylangan.

6. Erzen shahrining hokimi Mehmene Bonu Farhodni sevib qoladi va singlisining dushmaniga aylanadi.

7. Soya teatri va o‘rtta o‘yin tomoshalarida Farhod o‘lmaydi: vaqtida yetib kelgan Shirin Farhodni xudkushlikdan saqlab qoladi.

8. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan o‘zbek xalq dostoni Farhod va Shirinning to‘yi bilan baxtli yakun topadi.

Turkiy yozma adabiyotdagi Farhod obrazining evolyutsiyasini Qutbdan Samad Vurg‘ungacha sunday belgilash mumkin:

1) Farhod - kelib chiqishi noma'lum oddiy toshyo‘nar usta (Qutb, Faxriy, Shayxiy);

2) Farhod - Chin xoqonining o‘g‘li, otasining istagiga qarshi chiqolmay, shoh bo‘lishdan bosh tortmagan, lekin taqdir sinovlari tufayli tariqat yo‘lini tanlagan, majoziy ishq orqali ilohiy ishqqa yetishish yo‘lini anglab yetgan solik musulmon (Alisher Navoiy, Shohiy, Lami’iy, Nizoriy, Umar Boqiy);

3) Farhod - Chin xoqonining o‘g‘li, shoh bo‘lishdan bosh tortgan, san’atni hayotining mazmuniga aylantirgan iste’dodli rassom (Mahzun);

4) Farhod - mashhur rassom Kamoliddin Behzodning o‘g‘li, otasi kabi o‘ta qobiliyatli rassom va toshyo‘nar usta (To‘biliy, Nozim Hikmat);

5) Farhod – sipohbad, mohir jangchi, ayni zamonda mohir toshyo‘nar (Samad Vurg‘un).

Farhod obrazining tadriji oxirgi bosqichda, ya’ni Samad Vurg‘unning asarida, tarixiy Farhodga yaqinlashganini ko‘rishimiz mumkin.

Xusrav-Shirin-Farhod qissasining bosh mavzusi, shubhasiz, ishq. Islomiy adabiyotlarda ishqning ikki turi farqlanadi: ilohiy ishq (haqiqiy ishq) va insoniy ishq. Ilohiy ishq insoniy ishqning rivojlanib, kamol topgan oliv ko‘rinishi hisoblanadi. Insoniy muhabbat ham o‘z navbatida ikkiga bo‘linadi: birinchisi avom ishqni bo‘lib, insonning insonga pok muhabbat tarzida namoyon bo‘ladi. Ikkinchisi Olloh va inson o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘tovchi ishqni majzubdir. Nizomiy ishq-muhabbat insonni sayqallantiradigan, kamol toptiradigan tuyg‘u ekanligini mahorat bilan Xusrav obrazi orqali ifodalagan. Xusravning shohlik g‘ururi, takabburligi, yengiltabiatliligi sevgi borasida juda ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yishiga sabab bo‘ladi. Shirinning kuchli irodasi, pok sevgisi, sadoqati, aql bilan ish yuritishi tufayli mag‘rur shoh asta-sekin o‘zgaradi¹⁸. Dostonda Xusrav va Shirinning insoniy sevgisiga Farhodning majzub sevgisi qarama-qarshi qo‘yilgan.

Ma’lumki, Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida ishqni uch qismga bo‘lib ta’riflagan edi.

Birinchi qism - oddiy odamlar ishqni bo‘lib, xalq orasida mashhur va keng tarqalgandir. Bu xildagi odamlar kimadir oshiq bo‘lib, iztirob chekib, shuning xayoli bilan yuradilar. Bu ishq jismoniy lazzat va shahvoniy nafs bilan chegaralanadiki, oliv martabasi sha’riy nikohdir.

Ikkinci qism – alohida fazilat egalariga xos ishq bo‘lib, bu xos ishqqa mansub shaxslar pok ko‘zini pok niyat bilan pok yuzga soladilar va pok ko‘ngil u pok yuzning shavq-zavqi bilan beqaror bo‘ladi va bu pok yuz vositasi bilan pok oshiq haqiqiy mahbubning jamolidan bahra oladi.

Uchinchi qism – siddiqlar – haqgo‘ylar ishqni bo‘lib, ular haqning jamolini ochiq ko‘rish umidi bilan yashaydilar va shuning bilan matlubdirlar. Ularning haqni ko‘z bilan mushohada qilish umidlari o‘zni unutish darajasiga yetgan va bundan o‘tib halok bo‘lish maqomiga ko‘tarilgan bo‘ladi¹⁹.

¹⁸ Türkben Aydin, F. Nizâmî-yi Gencevî’nin Hüsrev u Şîrîn ile Leylâ vu Mecnûn eserlerinde aşk tasavvuru.NÜSHA. Cilt: 23 Sayı: 56, 2023. - S.149

¹⁹ Алишер Навоий. Махбуб ул-кулуб, Тошкент: Фафур Ғулом нашриети, 1983.- Б.51-54.

Navoiyning ta’biricha, har uchala ishq turi inson dunyoga keladigan bir qatra nutfa ichiga joylangan. Inson dunyoga kelganidan keyin butun umri davomida unga ana shu ishq martabalaridan yuqorilab borish va undan ko‘zda tutilgan maqsadga erishish taqdir qilingan, chunki olamning o‘zi ishqdan yaralgan, koinotdagi har bir zarrada Olloh ishqni tajallisini ko‘rish mumkin.

Turkiy tilda yozilgan “Farhod va Shirin” /“Shirin va Farhod”/ “Farhodnoma”larning bosh qahramoni Farhod oshiqlarning qaysi toifasiga kiradi? Masnaviyarni qiyosiy o‘rganish turkiy yozma va og‘zaki adabiyotdagi Farhod timsollarini bir xil o‘lchovga solib tahlil qilib bo‘lmasligini ko‘rsatdi. Bizningcha, ularni to‘rt toifaga ajratish kerak:

1-toifa. *Avom ishqini maqomida turgan oshiq Farhod obrazi*. Bu toifaga turkiy og‘zaki adabiyotdagi ertak, afsona, xalq teatrlarining qahramoni bo‘lgan, asar oxirida Shirin visoliga erishadigan yoki halok bo‘ladigan oshiq Farhod obrazi kiradi.

2-toifa. *Avom ishqini maqomidan o’sib, xoslar ishqini maqomiga yetishgan oshiq Farhod obrazi*. Tatar shoiri Ahmetzyan To‘biliy (1825-1890) Onado‘lu xalqi orasida keng tarqalgan Farhod (mashhur rassom Behzodning o‘g‘li) va Shirin (Xuroson malikasi Mahmanabonuning jiyani) hikoyasiga jiddiy o‘zgarishlar kiritib, uni islomiy mazmun bilan to‘ldirdi. Uning «Мәшҳүр вә мөтәгәрриф улан Фәрнад гашыйк илә мәгъшүк Ширин хикәясе» dostonida Farhodning Shiringa muhabbatini avom ishqini maqomidan xoslar ishqini maqomiga asta-sekin yuksalib boruvchi ishq tarzida bayon qilingan. So‘fiylik motivlari, ayniqsa, asar qahramoni Farhodning Shirin bilan ishqiy munosabatlarining ma’lum bir bosqichilarida namoyon bo‘ladi: ishqdan oziqlangan Farhod yeish va ichishdan voz kechadi; uni moddiy boylik va mansab qiziqtirmaydi; Xuroson podshohi Mahmanabonu tomonidan taqdim etilgan qimmatbaho mo‘ynali kiyimlar tarzidagi saxovatli mukofotlardan, Mahmanabonuga uylanib taxtga o‘tirish taklifidan bosh tortadi; qamoqdan chiqqanidan keyin hukmdordan olgan ming tillani darrov kambag‘allarga tarqatib yuboradi va hokazo. A. To‘biliy asarida Farhod obrazi ikki qarama-qarshi

xususiyatni o‘zida mujassam etgan. Bir tomondan, uning surati o‘quvchilar oldida jasorat, kuch va g‘ayrioddiy irodaning barcha ulug‘vorligi bilan namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan, u hissiy o‘zgarishlarga moyil bo‘lgan, junbushga kelgan hissiyotini boshqara olmay hushidan ketadigan yoki tushkunlikka tushib qoladigan shaxsni ifodalaydi. Mahmanabonu talabi bilan Shirinka atab yetti qavat osmonni eslatuvchi yettita qasr, ikkita yozgi ayvon, Sulaymon toshining tagidagi buloqning suvini shaharga olib kelish uchun tog‘ni kesib ariq kavlagan Farhod, Shirinning visolidan mahrum bo‘lgach, ruhiy tushkunlikka tushib qoladi. Sujetga ko‘ra, qamoqda Farhodning shoirlilik va bastakorlik qobiliyati uyg‘onadi. U to‘qigan qo‘shiqlar tezda xalq orasida mashhur bo‘lib ketadi. Farhod qamoqdan chiqqanidan keyin telbadek tog‘larda yovvoyi hayvonlar orasida kezib yuradi, ularga qayg‘uli va umidsiz ohangdagi qo‘shiqlarini kuylaydi. Chunki To‘biliy dostonida ishq aqlga emas, his-tuyg‘uga bo‘ysunadi. Nizomiy asarida, aksincha, ishq aqlga bo‘ysunadi. Xusravning sevgi tajribalari qanchalik kuchli bo‘lmisin, Shirin ehtiroslarga qul bo‘lmaydi, o‘z sha’nini saqlaydi. Uning aqlga bo‘ysunuvchi ehtiyotkor sevgisi hatto mag'rur hukmdorning salbiy fazilatlardan xalos bo‘lishiga sababchi bo‘ladi. Garchi, tatar so‘fiy shoiri A.To‘biliyning dostoni bizga to‘liq yetib kelmagan bo‘lsa-da, Farhod siy whole side so‘fiylarning ishq tushunchasini namoyon etadi. Avom ishqini vakili bo‘lgan Farhod majoziy ishq sohibiga aylanadi, “pok ko‘zini pok niyat bilan pok yuzga soladi”. Moddiy olam qadriyatlar haqiqiy oshiqni Ollohga yaqinlashtiruvchi oliy maqsadlar yo‘lidan aslo chekintira olmaydi²⁰.

3-toifa. *Majoziy ishq orqali haqiqiy ishqqa yetishgan oshiq Farhod obrazı.* Uyg‘ur shoiri Nizoriyning “Farhod va Shirin”dostonida o‘ttiz misrali bir ma’viza keltirilgan. Unda Yamanda Farhodga duch kelgan kuchlarning majoziy mohiyati ochib berilgan. Nizoriyning tasvirlashicha, odamzodning nafsi hasad g‘orining og‘zida turgan ajdar kabidir. Uning ishi hasadgo‘ylik va o‘z domiga tortishdan iborat. Ahraman esa

²⁰Хасавнек, А. А. Поэма Ахметзяна Тубыли «Повествование о небезызвестном Фархаде и его возлюбленной Ширин», Вестник Северо-Восточного федерального университета имени М. К. Аммосова: Серия Эпосоведение, № 3 (19), 2020. - С.47-62

takabburlik bilan hirsdir, u kishining dimog‘iga uya qurib oldimi, bas, uni xarob qilmay qo‘ymaydi. Takabburlik va hirs egalari tevarak - atrofdagilargagina ziyon-zahmat yetkazib qolmay, oqibatda o‘zlarini ham mahv qiladilar. Ma’viza shunday satrlar bilan yakunlanadi:

*Qilib aqlni Xizrdek rahbar,
Ko ‘ngil siridin ondo olg‘il xabar.
Vujudungdin o ‘lsa ishlar ayon,
Ki Suqrot bo ‘lmoqg‘a yo ‘qtur gumon.*²¹

Bu misralarda shoirning tasavvufiy qarashlari aks etgan: komillikka intilgan odam, avvalo, o‘zini taftish qilishi kerak. Nafs - ajdarni, takabburlik - Ahramanni yengib, komillik pog‘onalaridan yana ilgarilab borishi,”haqiqat yoriga ko‘ngil berib, suqrotchasiga yashashi kerak” bo‘ladi.

“Navoiyning lirik qahramoni Haqni ichkin o‘laroq nafsda mushohada aylagani uchun u nihoyatda kuchli ruhiy, hissiy salohiyat sohibidir. Uning ko‘ngil va ruh olamiga yaqinlashishning bir necha yo‘li bor. Shulardan biri - tasavvuf”,- deb ta’kidlagan edi navoiyshunos olim Ibrohim Haqqulov²². Bu e’tirof Navoiyning dostonlariga ham tegishlidir.

Sovet davri navoiyshunosligida “Farhod va Shirin” dostonini insoniy sevgi - muhabbat tarannum etilgan, ikki yoshning bir-biriga yetisha olmay, taqdirlari fojiali yakun topgan oddiy sevgi qissasi deb qarash ustun bo‘ldi. Avom ishqisi tasvirlangan asar sujetiga to‘rt qasrning qurilishi, to‘rt manzilda uchragan to‘sinq-g‘ovlar, dengiz safari, Suhaylo va Suqrot obrazlarining olib kirilishi tushunarsiz bo‘lib qolaverdi.

Navoiyshunos olim Najmiddin Komilov “Farhod va Shirin” dostoniga bag‘ishlangan tadqiqotida, Nizoriyning ma’vizasi va tasavvuf ilmidagi ramzlarga tayanib, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida avom ishqisi emas, xoslar ishqisi tasvirlanganini asoslab berdi²³. Farhod Suqrotdan ishq darsini o‘rganib, majoziy ishqiga mazhar bo‘lgan Shirin visoliga yetishishni orzu qiladi, vafotidan keyin ilohiy ishqqa

²¹ Солиҳова Ҳ. Алишер Навоий издошлар. - , Тошкент: Фафур Ғулом нашриети, 2005. - Б. 71-73

²² Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. Тошкент: “Фан” нашриети, 2007.-Б. 11.

²³ Комилов Н. Тасаввуф.- Тошкент: “Movarounnahr” нашриети, 2009. - Б. 182-191.

yetishadi. Uning tug‘ma dardi va Shirinning husni ilohiy ishqning kalitiga aylanadi.

Diniy-tasavvufiy manbalarda keltirilishicha, odamzod vujudini nafs, qalb, ruh va aql tashkil etadi. Insonga shu to‘rt asosni bu dunyo manzilidan toza va pok holda olib o‘tish buyurilgan. Tasavvuf ilmida nafsni poklashga alohida e’tibor qaratilgan. Ulamolarning ta’kidlashicha ko‘z, qulqoq, burun va og‘iz orqali odamzod bu foniylardan lazzat oladi, faqat tanaga xizmat qiluvchi rohat-farog‘atni topadi. Agar tanaga kirayotgan lazzat va rohat omillarining yo‘li to‘sib qo‘yilsa, u holda qalb oynasi poklanadi. Navoiy nafs, qalb, ruh, aql haqidagi qarashlarini va ilmiy xulosalarini doston badiiyatiga singdirib, majoziy obrazlar bilan bayon etdi. Najmiddin Komilovning “Tasavvuf”, Bobomurod Eralining “Majoziy muhabbat haqiqatlari” asarlariga tayanib²⁴, “Farhod va Shirin” dostonida qo‘llangan majoziy obrazlar ko‘rinishidagi tasavvufiy istilohlar va ramzlarning izohli lug‘atini shakllantirishimiz mumkin:

<i>ajdarho</i>	nafs, ochko‘zlik, ochofatlik, yeb to‘ymaslik timsoli
<i>dev</i>	saltanat (hokimlik), kibr timsoli
<i>dengiz safari</i>	ishq olamiga qadam qo‘yish
<i>Farhod</i>	1) xoslar ishq maqomida turgan oshiq timsoli; 2)dard timsoli; 3) komil inson timsoli; 4) ilohiy qudrat timsoli
<i>hiylagar kampir</i>	bu dunyoning makr - hiylasi timsoli
<i>ismi a’zam yozilgan qilich va qalqon</i>	ma’naviy quvvat timsoli
<i>Jahonbin jom</i>	Farhodning musaffo qalbi
<i>Jomi Jamshidni qo‘lga kiritish</i>	Farhodning suluk tadrijida muayyan martabaga erishganidan nishona
<i>ko‘zgu</i>	ko‘ngil timsoli; komil inson Suqrotning qalbi
<i>mahbubni ko‘rganda hushni yo‘qotish</i>	ilohiy nurdan hayratga tushish va sirlashish

²⁴ Erali B. Majoziy muhabbat haqiqatlari. – T.: Akademnashr, 2015. – B. 49-58.

<i>may va sharob</i>	ma’naviy quvvat, ilohiy sir-asrordan voqif bo‘lish
<i>mazhar</i>	siymosida ilohiy jamol aks etgan kishi
<i>qandil</i>	iymon timsoli
<i>qorong‘u g‘or</i>	yovuzlik va qabohat timsoli
<i>Samandar</i>	ishq ramzi
<i>sher</i>	g‘azab timsoli
<i>temir paykar</i>	1) ro‘yo, yolg‘on, shayton hiyla-nayranglari timsoli; 2) shirk va nifoq timsoli
<i>Suhaylo</i>	tariqat yo‘lidagi birinchi pir; qalbi bedor pir
<i>Sulaymon uzugi</i>	ma’naviy yetuklik timsoli
<i>Suqrot</i>	piri komil timsoli; Farhodning tariqat yo‘lidagi uchinchi piri; Ilohiyot olamini o‘zida mujassam etgan zot
<i>suv</i>	tiriklik ramzi
<i>to‘rt manzil</i>	Farhod bosib o‘tgan birinchi manzil – nafs timsoli; ikkinchi manzil – qalb timsoli; uchinchi manzil – ruh timsoli; to‘rtinchi manzil - aql timsoli
<i>to‘rt qasr</i>	1) olam uyi, unda qisqa muddatga mehmon bo‘luvchi inson umri davrlari: bolalik, yoshlik, o‘rta yosh, keksalik timsoli; 2) havoyi nafs istagi
<i>tog‘</i>	pirning ulug‘vorligi timsoli
<i>tog‘da metin toshlarni qo‘porib, suv chiqarish mashaqqatlari</i>	majoziy ishq yo‘lida chekilgan ruhoniy iztiroblar, azob-uqubatlar timsoli
<i>Xizr</i>	Farhodning ikkinchi piri; yo‘lboshchi
<i>Xusrav</i>	avom ishq timsoli
<i>Yunoniston safari</i>	solikning tariqatga kirishi, sulukdagi yo‘li
<i>g‘or ichidagi yorug‘ uy</i>	qalbning yovuzlik va qabohatdan poklanishi
<i>Shirin</i>	1) majoziy mahbuba; 2) husn timsoli; 3) Farhodning majoziy ishq uchun mazhar
<i>Yunoniston</i>	hikmatlar yurti
<i>Chin</i>	Allohning go‘zalligi zuhur etgan san’at, nafosat, go‘zallik o‘lkasi

4- toifa. *Xalqqa bo‘lgan sevgisini insoniy sevgisidan ustun qo‘ygan Farhod obrazi*. Turk yozuvchisi Nozim Hikmat Bursa qamoqxonasida yotganida “Xalq kitoblari turkumi”dan nashr qilingan xalq qo‘shiqlari, qissalaridan ilhomlanib “Farhod va Shirin” dramasini yozishga kirishadi. Asar sujetiga Onado‘luda mashhur bo‘lgan, Farhod va Shirin o‘limi bilan yakunlanadigan “Farhod va Shirin” xalq qissasining yarmi asos qilib olinadi.

Husnini singlisi Shiringa berib, uni o‘limdan qutqarib qolgan Mehmenebonu Shirin uchun qurilgan qasrni naqshlar bilan bezash uchun rassom Behzod va uning o‘g‘li Farhodni saroyga taklif etadi. Farhod yaratgan bo‘yoq, lola guli naqshining yangi ko‘rinishi to‘rt tarafga ovoza bo‘ladi. Uning ishlarini ko‘rishga kelgan opa-singil Farhodning go‘zal husni va alp qomatini ko‘rib bir qarashda unga oshiq bo‘ladilar.

Umrida birinchi marta sevib qolgan Mehmenebonu tuyg‘ular iskanjasida qoladi. Farhodning singlisiga ko‘ngil qo‘yganini eshitib darg‘azab bo‘ladi. Shaharda tarqagan vabo malikaning g‘azabidan qo‘rqib qasrdan qochgan Shirin va Farhodni bir-biridan ajratishga bahona bo‘ladi. Mehmenebonu Farhodga: “Singlimni senga shaharni suv bilan ta’minalash sharti bilan beraman”, - deydi. Farhod o‘n yil davomida tog‘ni qo‘porib, ariqlarida yiring oqayotgan, suvsizlikdan qiynalayotgan Arzen shahriga suv olib kelish uchun kurashadi. Unga rahmi kelgan Mehmenebonu: “Ishni tashlab saroyga qaytsin. Shiringa uylansin”, - desa ham, o‘jarlik qilib teshasini tashlamaydi. Shiringa bo‘lgan muhabbatini, eshik og‘asi bo‘lish orzusini bir chetga surib, xalq dardi bilan yashaydi. Xalqqa bo‘lgan muhabbati hayotining mazmuniga aylanadi. Mehnat odami bo‘lgan Farhod obrazi, shubhasiz, Nozim Hikmatning mashhur qissa sujetiga qo‘shgan badiiy yangiligi bo‘ldi.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizday, turkiy yozma adabiyot va xalq og‘zaki ijodida “Farhod va Shirin” dostonining turlicha talqin va variantlari mavjud. Mazkur sevgi qissasiga qo‘l urgan har bir shoir va baxshi, ertakchi va qissago‘y o‘zidan oldin yaratilgan manbalarni chuqr o‘rgangan, xayol elagidan o‘tkazgan. O‘zi mansub davrning muammolarini badiiy va ramziy timsollarda tasvirlab, Farhod obrazini yanada takomillashtirib borganlar. Ming yil mobaynida Farhod kelib

chiqishi noma'lum toshyo'nardan dard, majoziy ishq, komil inson, majzubi solik, mehnat odami timsoliga aylandi. Farhod obrazining oliy takomilini Alisher Navoiy yaratdi va majoziy ishqning qay tarzda haqiqiy ishqqa aylanish jarayonini Farhod taqdiri orqali ko'rsatib berdi²⁵.

²⁵ Raxmanova N. Turkiy adabiyotdagı Farhod obrazining genezisi va tadriji. X Халықаралық Түркология конгреси 17-20 қазан 2023, Түркістан/ Казақстан. Материалдардың жинағы – С.241-245

II BOB. FOZIL YO‘LDOSH O‘G‘LINING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI

2.1. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining hayoti va ijodi

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi deganda dastlab “Alpomish” yodimizga kelsa, bu dostonni eslaganimizda esa o‘z-o‘zidan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lini tilga olamiz. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li 1872-yilda Samarqand viloyati, Bulung‘ur tumani, Bo‘dana mahallasidagi Loyqa qishlog‘ida (qishloq hozirda Baxmal tumaniga qaraydi) dehqon oilasida tavallud topgan. Otasi o‘zbekning qirq urug‘idan bo‘lib, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan. Olim Hodi Zarifning ma’lumotiga ko‘ra, baxshining otasi 1873-yilda tirikchilik sababli oilasi bilan Chelakning Qumchiq qishlog‘iga ko‘chib ketadi. 1877-yilda baxshining otasi shu yerda vafot etadi. Onasining qo‘liga qaram bo‘lib qolgan oilaning ahvoli kundankunga og‘irlashadi. Shuning uchun u to‘qqiz yoshga to‘lar-to‘imas yollanib, cho‘ponlik qilishga majbur bo‘ldi. Bu haqda baxshi keyinchalik "Kunlarim" termasida shunday deydi:

Olti yoshda qo‘msab-qo‘msab otamni,
Og‘ir mehnat ezdi sho‘rli enamni,
Ena-bola topolmadik bir nonni,
Parcha non deb o‘tgan kunlarim.

Yetti yoshda ortdi mening kulfatim,
Sakkiz yoshda og‘ir mehnat ulfatim,
Mehnat uchun sinab ko‘rdim quvvatim,
To‘qqiz yoshga yig‘lab yetgan kunlarim.

To‘qqizimda bel bog‘ladim mehnatga,
Cho‘pon bo‘ldim, tushdim yana g‘urbatga,
Ishlab edim, lekin qoldim minnatga,
Parcha non deb minnat chekkan kunlarim.

Do‘mbiram kuyladi mening holimni,
Men Jo‘r bo‘lib so‘kdim boyni-zolimni,
Topdim do‘sstar, shunda dardkashlarimni,

Haq-nohaqni kuylab chertgan kunlarim.²⁶

Besh yoshida otadan yetim qolib, turmush mushtlarini yeb, cho‘ponlik qilgan Fozilda dostonchilikka havas erta uyg‘ondi. Yoshligida do‘mbira chertishni, terma aytishni mashq qildi. Azbaroyi yo‘qchilik vajidan 19-20 yoshigacha dala-dashtda cho‘ponlik qilib yurgani ham bo‘lajak baxshi uchun Ollohning inoyati bo‘ldi. Bolaligida qo‘yning izidan ergashib, kitobxon bo‘lgan yoki yolg‘izlikda xayol imoratlarini solib, keyinchalik ijod olami eshagini qoqqanlar bu gapning ma’nisiga yetadi. Cho‘ponlik qilib g‘ala-g‘ovurlardan nari yurish odamga ko‘nglini boyitish, tafakkurini kengaytirish uchun xuddi uzlatga chekinishdek imkoniyat beradi. Fozil shoirning ham ilk tinglovchisi, ilk dardkashi, ilk tanqidchisi va hatto ilk ustozи dasht bo‘lgan bo‘lsa, ajab emas.

Baxshi uchun hayotni bilish, turmushning achchiq-chuchugini tatib ko‘rish ham o‘ziga xos tajriba mакtab bo‘lgan. Bu maktabdan Fozil shoirning tuzukkina ta’lim olgани uning keyingi paytlarda kuylagan terma va dostonlaridan ma’lum bo‘ladi. Baxshidan yozib olingan termalar uning hayoti haqida ma’lum bir tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Xususan, ular vositasida biz Bulung‘ur dostonchilik maktabining eng yirik va so‘nggi vakili hisoblanadigan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining baxshilar davrasiga o‘z-o‘zidan qo‘shilib qolmaganini bilib olamiz.

“O‘n sakkiz yoshga to‘lgan, yigit bo‘lib el oralab yurgan Fozil bir kuni katta bir davraning ustidan chiqib qoladi. Davrada mashhur baxshi shoirlar: Yo‘ldosh shoir, Qo‘ldosh shoir, Suyar shoir, Xushnazar, Quvondiq, Rasulberdi, Raim va Sherali shoirlar jam bo‘lib, navbatma-navbat doston kuylab hammani o‘ziga qaratardi. Yosh Fozil shoir ham tavakkal deb davraga qarab yuraverdi, davrani diqqat bilan kuzataverdi. O‘z navbati kelganda do‘mbirasini qo‘liga olib kuylayberdi. Baxshilar hayratlanib bir-biriga qarayberdi. Bu ijodiy uchrashuv uning hayotida katta bir burilish yasadi”.²⁷ Yo‘ldosh shoir, Qo‘ldosh shoir va Suyar shoir degan aka-ukalar maslahatlashib, Fozilni ota yurti Bulung‘urga olib kelishga ahd qilishadi. Ular bir kechada Foziljoni Loyqa qishlog‘iga olib

²⁶ Annakulova D. Baxshi shoirlar Ergash Jumanbulbul o‘g‘li va Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining o‘zbek dostonchilik maktabida tutgan o‘rni. Oriental Art and Culture, Volume 3/ December 2022.-P. 128.

²⁷ <https://www.yoshlarovozi.uz>news>> Xalq dardini kuylab o’tdi.

kelishadi. Yigirma yoshida o‘z qishlog‘iga qaytgan Foziljon, otasidan qolgan bir tanob yerda dehqonchilik qila boshlaydi. Shu yo‘sin bulung‘urlik baxshilar yosh shoirning baxshilik iste’dodini o‘stirishga kirishadi. Tadqiqotchilarning ma’lumot berishlaricha, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li ulg‘aygani sari chorvachilik, dehqonchilik sirlarini egallab borar ekan, hamyurtlari orasida Loyqa qishlog‘ining eng epchil o‘roqchisi nomini olishga muyassar bo‘ladi.

Qayta-qayta baxshilar davrasida ishtirok etib, ko‘p o‘tmay o‘z davrining eng mashhur ustoz baxshilardan Yo‘ldoshbulbulning e’tiborini o‘ziga tortadi. Fozilning qobiliyatini kuzatib yurgan Yo‘ldosh shoir esa uni o‘ziga shogirdlikka oladi. U o‘n besh baxshidan ta’lim olgan mohir san’atkor edi. Yo‘ldosh shoir Fozilni o‘z bolasiday tarbiyalaydi, dostonchilik yo‘llarini o‘rgatadi. Yosh baxshi ustozining o‘gitlarini qunt bilan o‘zlashtira boradi, ko‘p dostonlarini o‘rganadi, o‘zi ham mustaqil dostonlar, termalar aytadigan bo‘ladi. Albatta, havaskor doston ijrochisidan yetuk baxshi nomiga yetishishi undan katta mehnatni, ijodda o‘tadigan uyqusiz tunlarni talab qilardi. Fozil baxshidagi iroda bu talablarga javob berish uchun yetarli quvvatga ega bo‘ldi. Yosh ijrochi o‘z ustozi va hamyurtlaridan qirqdan ortiq dostonni o‘rgandi, o‘zi ham yangi asarlar ijod etdi.

U vaqtarda baxshi nomini olish uchun ustozi tomonidan maxsus chaqirilgan yig‘inda doston aytib, sinovdan o‘tishi kerak edi. Fozil ham ustozi-baxshilar sinovidan muvaffaqiyatl o‘tib, baxshi-shoir nomini oladi. Yosh baxshi xalq o‘rtasida ustozi uyuştirgan sinovdan muvaffaqiyatl o‘tib, 25 — 26 yoshlarida yetuk dostonchi sifatida tanildi. Fozil zamona zayli bilan savodsiz qolgan bo‘lsa-da, uch aka-uka baxshilar – Yo‘ldosh, Qo‘ldosh va Suyar shoirlarning kattasiga shogird tushib, ta’bir joiz bo‘lsa, Bulung‘ur baxshichilik akademiyasini o‘tadi.

Xalq baxshisi hamisha o‘z elining dardini, alamini, tashivishlarini o‘z ijodida aks ettirgan. Tinglovchi omma juda og‘ir va musibatli zamonlarda aynan baxshi termalaridan tasalli topgan, kelajakka umid bilan qaragan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li ham ana shunday baxshilardan edi. U ta’lim olgan 1898-1908 - yillarda yurtimizda tarixida tabiiy ofat ro‘y beradi. Ekin maydonlarining hammasini chigirtka bosadi. Bu fojiadan

azobga tushgan baxshi hamyurtlari boshiga tushgan qiyinchiliklami "Chigirtka" termasidan bayon etdi. Qashshoqlik avjiga chiqqani sari baxshining nolasi ham chegara bilmadi:

Kambag‘alning aqli shoshib,
O‘g‘il qiziman kengashib,
Kecha-kunduz zor yig‘lashib,
Do‘stlar qaddi kamon bo‘ldi.

Aksiga olib, chor hokimiyatining zulmi ham kuchayib borardi. Xalqning tashvishiga tashvish qo‘shilardi. Ko‘p o‘tmay Jizzaxda bosh ko‘targan aholi to‘pga tutildi. Bunday tashvishli voqealar Fozil shoirda yangi-yangi asarlar yaratish istagini paydo qildi. Uning "Mamatkarim polvon", "Jizzax qo‘zg‘oloni" kabi kichik hajmdagi dostonlari shu zayilda ijod qilindi:

O‘z holiga qo‘ymay xalqni,
Qayta-qayta chiqim soldi...
Urushda bo‘lgan harajat,
Qaydan topib bersin elat?!
Hamma bo‘lib qoldi hayron,
Nechovning vatani vayron.²⁸

"Jizzax qo‘zg‘oloni" dostonida Fozil shoir ko‘rgan kechirgan azob-uqubatlarini oddiy xalq tilidan sodda va ravon tarzda ifoda etishga urindi. Ammo baxshi tomonidan doimiy ravishda aytيلayotgan terma va dostonlar uning an'anaviy epik asarlarni ham to‘lib-toshib ijro etishiga xalaqit bermadi.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li Amin shoir, Chini shoir, Tovbuzar shoir, Qurbonbek shoir, Sultonmurod shoir, Yo‘ldoshbulbul, Yo‘ldosh shoir, Qo‘ldosh shoir, Suyar shoir kabi Bulung‘ur dostonchilik mактабининг peshqadam dostonchilaridan adabiy an'anani qabul qilib oldi, uni puxta egallab, badihago‘ylik bilan boyitdi va o‘zbek dostonchiligini yangi bosqichga ko‘tardi. Repertuaridagi dostonlarga o‘zining hayotiy kechinmalarini, his-tuyg‘ularini qo‘shti. Aksariyat dostonlarning sujetini qayta ishladi: keraksiz tafsilotlarni qisqartirib, xalqning istak - xohishini aks ettiruvchi motivlarni qo‘shti. Dostonlarida farzandlarning ota-onaga

²⁸ Yo‘ldosh o‘g‘li, Fozil.Jizzax qo‘zg‘oloni. www.ziyouz.com/kutubxonasi

hurmati, onaning farzandiga mehr-oqibati, aka-uka o‘rtasidagi rahm-shafqat, sadoqat kabi ijtimoiy va oilaviy muammolar muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, “Farhod va Shirin” dostonida o‘zbek ayollarining yana bir qirrasi- Vatan uchun jonni fido qilish, qo‘lga qurol olib, erkaklar bilan bir safda jang qilish; yurtni adolat bilan boshqara olish qobiliyatları ochib berilgan. Shu boisdan baxshi kuylagan dostonlar mavzu va motiv jihatidan boy va rang-barang, badiiylik jihatidan yetuk asarlardir.

Shoir qahramonlik, romanik, tarixiy dostonlar hamda kitobiy dostonlarning eng yaxshi namunalarini kuylab kelgan. "Alpomish" dostoni uning ijodida alohida o‘rin tutadi. Bu dostonning o‘zbek xalq dostonchilaridan yozib olingan 40 ga yaqin variantlari orasida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining varianti eng mukammali va badiiy jihatdan barkamoli hisoblanadi. Unda shoirning yuksak dostonchilik mahorati to‘la namoyon bo‘lgan. Bu uning eng sevgan va maroq bilan kuylagan san’at asari edi. Baxshi bu dostonni istagan hajmda soatlab, bir necha kunlab, haftalab aytishi mumkin edi.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li oilasida ketma-ket beshta qiz farzand dunyoga keladi. Baxshi “yoshi bir qoraga borib qolganda” ikkinchi qizi Hayitgulning 4-5 yoshli farzandi Narzullani o‘g‘il qilib oladi, guvohnomasini o‘zgartirib, o‘zining familiyasiga rasman o‘tkazadi. Nazrullani otiga o‘tqizib, o‘zi doston kuylaydigan davralarga olib borar, muxlislariga “Bu mening og‘lim bo‘ladi” deb tanishtirar edi. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li xassos shoir Hamid Olimjonning bobosi Mulla Azim bilan bo‘la bo‘lgan. Juda bag’ri keng inson bo‘lgani uchun uyidan mehmon arimagan. Folklorshunos olima Muzayyana Alaviya yosh bolasi bilan baxshining uyida oylab turib, dostonlarni yozib olgan ekan. Fozil Yo‘ldosh yozishni bilmagani uchun doston va termalarini kotibi Meliboy Rahimovga yoki qizlariga aytib yozdirgan. Meliboy Rahimov “Umidli so‘qmoqlar” kitobida baxshining hayoti va ijodi haqida qimmatli ma’lumotlarni yozib qoldirgan.

O‘z xalqining sevimli oqini, baxshi-shoir Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li 1955- yil 17-martda vafot etdi.

Bulung‘ur baxshichilik maktabi Muhammad shoir (XVIII), Amin baxshi (XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asrning birinchi yarmi),

Yo‘ldoshbulbul (XVIII asrning oxiri – XIX asrning birinchi yarmi), Sultonmurod shoir (XIX asr), Qurbanbek shoir (XIX asr), Tovbuzar shoir (XIX asr), Chini shoir (XIX asr), Bekmurod shoir (XIX asrning ikkinchi yarmi), Yo‘ldosh Mulla Murod o‘g‘li (XIX asrning ikkinchi yarmi), Rahmonberdi shoir (XIX asr), Usta Do‘systor (XIX–XX asr), Tovoshar shoir (XIX–XX asr), Jo‘ra shoir (XIX–XX asr) kabi nomdor ijrochilarni yetishtirgan. Shunday ulug‘lar davrasidan esgan shamollar Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lini tobladi, zuvalasini pishitdi. Fozil Yo‘yldosh o‘g‘li repertuari mavzu va janr jihatidan boy va rangbarang. U 40 dan ortiq xalq dostonlarini yod bilgan va yuksak mahorat bilan kuylagan. Undan "Alpomish", "Yodgor", "Yusuf bilan Ahmad", "Murodxon", "Rustamxon", "Shirin bilan Shakar", "Go‘ro‘glining tug‘ilishi", "Avazxonning o‘limga hukm etilishi", "Malika ayyor", "Mashriqo", "Zulfizar", "Balogardon", "Intizor", "Nurali", "Jahongir", "Zevarxon", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Baxrom va Gulandom", "Oshiq G‘arib" kabi ko‘plab dostonlar yozib olingan. Fozil Yo‘yldosh o‘g‘li zamonaviy mavzularda ham qator doston va termalar yaratgan. Uning "Mamatkarim polvon", "Jizzax qo‘zg‘oloni", "Kunlarim" kabi dostonlari, "Jangchi o‘g‘limga", "Elat botir", "Ota nasihat", "Qurollaning", "Er yigitlar, maydonga!", "Jahon tinglagay", "Bolalarimga", "Pushkinga" kabi termalari shular jumlasidandir. Birgina 1937-yilning o‘zida shoirning 9 ta dostoni yozib olinadi. Mutaxassislar Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan 30 dan ortiq dostonni yozib olishgan bo‘lsa-da, taqdir taqozosi bilan ularning ayrimlari yo‘qoladi, faqat "Alpomish" dostoni to‘liq saqlanib qoladi. O‘g‘uz, Qipchoq, Oltoy, Qo‘ng‘irot versiyalariga ega bo‘lgan bu dostonning 1928- yilda Mahmud Zarifov tomonidan Hodi Zarif rahbarligida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan nusxasi butun turkiy xalqlar orasida qahramonlik eposi hisoblangan "Alpomish"ning eng mukammal va badiiy jihatidan yetugi hisoblanadi. 1952- yilda mustabid sovet tuzumi siyosatiga mos emaslikda ayblangan, 1999- yilda esa mustaqilligimiz sharofati bilan ming yilligi nishonlangan "Alpomish"ga ham Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li aytgan nusxa asos bo‘ldi. O‘zbek dostonchiligining buyuk namoyandası Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li

dostonlarining gultoji bo‘lmish “Alpomish” YUNESKOning tarixiy meros obyektlari ro‘yxatiga kiritilgan.²⁹

2022-yilda Bulung‘ur tumanida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li tavalludining 150 yilligi nishonlandi. Shoir dafn etilgan Bulung‘ur shahrida muzey tashkil etildi va unga haykal o‘rnatildi. Baxshi qo‘nim topgan “G’ishtli ota” qabristoni obodonlashtirildi, xalq baxshisining qabrini ziyorat qilish uchun keladiganlarga zarur sharoitlar yaratildi.

2.2. “Farhod va Shirin” dostonining qisqacha mazmuni

Chin podshohi farzandsiz edi. Merosxo‘ri yo‘qligidan qattiq qayg‘uga botar edi. Kunlarning birida xonning xotini homilador bo‘lib, to‘qqiz oy, to‘qqiz kun va to‘qqiz soatdan keyin o‘g‘il tug‘adi. Xoqon o‘g‘liga Farhod deb ism qo‘yadi. Farhod besh yoshga to‘lgach, maktabga boradi va mulla bo‘ladi. Uning tanasi kundan-kunga o‘sib, bir alp polvon surat bo‘ladi. Farhod saltanat ishlariga qiziqmay qo‘yadi. Buni ko‘rib shoh Farhodga 100 yigitni sherik qilib, “Ko‘ngli ochilar” deb ovga chiqarib yuboradi. Ammo Farhod bu yigitlarning o‘yin - kulgusiga qiziqmaydi. Cho‘llarda majnunsifat yig‘lab yuradi. Yigitlar sababini so‘rashganda indamaydi. Shunda Farhod yo‘lda tosh yo‘nuvchini ko‘rib qoladi va uning ishini biroz tomosha qilib turadi, ko‘ngli ochiladi. Buni eshitgan xoqon Chin mamlakatidagi tosh kesadigan, toshga naqshin gullar o‘tqizadigan ustalarini yig‘ib bir tomoshaxona soldiradi. Farhod saltanat ishlarini butunlay tark etib, bu ustalar bilan ishlay boshlaydi va ulardan ish o‘rganadi. Otasi “Bir kun kelib dunyoga qiziqib, bu ishini tashlab ketarmikin?” degan o‘yda Farhodni xazinaga olib boradi. Garchi Farhod qiziqmasa ham, unga har xil qimmatbaho va kamyob toshlarni ko‘rsatadi. Ikkinchи xazinadagi yorug‘ quti uning e’tiborini tortadi. Otasi qutini ochishga ruxsat bermaydi. Chunki kim bu qutini ochmoqchi bo‘lsa, tirik qolmaydi. Farhod otasining gapiga qulq solmay, uning kalitini so‘raydi. Xitoydagi munajjimlar qutining kaliti Yunonistonda yashaydigan hakimda bo‘lishi mumkinligini aytadilar. Farhod u yerga borishni

²⁹ <https://www.yoshlarovozi.uz>

xohlaydi. Otasi qaytarishga harakat qiladi, ammo Farhod qulq solmaydi. Otasi noiloj rozi bo‘ladi va “Seni yolg‘iz yubormayman” deb Farhodga yaxshi kiyimlar kiygizib, yaxshi yigitlardan hamroh qilib, ot-anjom, quroq-yarog‘ini tayyorlab yuz ming lashkar qo‘shadi. Ular Yunon mamlakatiga kelishadi. Ellin Sulton ularni bosqinchi deb o‘ylaydi, Farhod niyatini oshkor qiladi. Vaziyatni tushungan yunonlar unga baland tog‘ cho‘qqisidagi g‘orda bir qariya yashashini aytishadi. Farhod u yerga borib, tog‘ning tepasida yolg‘iz yashaydigan qariya (Bobo) bilan uchrashadi. Qariya unga ajdaho va devdan himoya qiladigan malham beradi. Farhod yo‘lida duch kelgan dev va ajdahoni o‘ldiradi. Keyin o‘zini ming yildan beri kutayotgan boshqa donishmand qariyaga (Hakimga) duch keladi va undan quti kalitini oladi.

Xitoyga qaytib kelgan Farhod sirli qutini ochadi va Yer yuzidagi barcha mamlakatlarni tomosha qiladi. Erondagi bir gulistonda o‘ynayotgan qiz va yigitlarni ko‘radi. Tog‘ tepasida o‘tirgan qizning go‘zalligi uni maftun etadi. U yiqilib, hushidan ketadi. Biroz vaqt o‘tgach, majnunsifat bo‘lib o‘ziga keladi. Yuragida shu qizni topish ishtyoqi bilan yo‘lga chiqadi. Otasining yalinishlari kor qilmaydi. O‘g‘lini qolishga majburlay olmasligini tushungan ota yuz ming askarni yig‘ib, o‘g‘li bilan birga Eronga yo‘l oladi. Shunda oldilaridan daryo chiqadi. Shirin sevgisidan yonayotgan Farhod otasi va askarlarning ortga qaytishini xohlaydi. Unga otasi: “Baliqning tirikligi suv bilan, mening tirikligim sen bilan” deb, yuz ming lashkari bilan daryoga tushadi. Bir oqshom kuchli yomg‘ir yog‘ib, chaqmoq chaqib, bo‘ron ko‘tariladi. Katta to‘lqin hammani har qayoqqa uloqtiradi. Ertalab qirg‘oqqa uloqtirilgan odamlar orasida Farhodni izlab topolmagan otasi umidini uzadi va uni o‘lgan deb o‘ylab, o‘z yurtiga qaytadi.

Farhod yog‘och parchasiga yopishib qirg‘oqqa yetib boradi. U qirg‘oqda bir karvonni ko‘radi, o‘zining qayerdaligini bila olmaydi. Yolning chetiga kelib o‘tiradi. Uni karvondagi Shopur ismli yigit sezib qoladi va oldiga boradi. Ular do‘splashadilar. Farhod sevgisi tufayli vatanini tark etib, yo‘lga chiqqani haqida so‘zlab beradi. Shopur bu qizning Shirin ekanligini taxmin qiladi. Keyin u Farhodga ish topib, birga ishlashni taklif qiladi Shu asnoda yurib, bir shaharga yetadilar. Bu shahar

Eron davlatiga qarashli edi. Shahar podshosining ismi Mahinbonu bo‘lib, uning Shirin ismli singlisi bor edi. Mahinbonu Shirinni juda yaxshi ko‘rar, “Mendan keyin podsholik Shirinniki” der edi. Shirinning yonida mingta yigit, to‘rt yuzta kanizak yurar edi. Shirin har kuni ularga o‘z qo‘li bilan sharob ichirar edi. Bir kuni Shirin debdi: “Katta bir tosh hovuz qudirlasak, uni qand-u novvot bilan yarim qilsak. Tog‘ning narigi yog‘ida daryo bor. Shunday bir toshkesarni topingki, daryodan ariq olib, tog‘ni kesib, toshdan nov yasasin. Shu hovuzga yarasha suv olib kelsin. Tosh novdan yangi sog‘ilgan sut ham oqib tursin. Sut bilan suv aralashib, shu hovuzga tinmay oqib tursin, hech qachon kamaymasin, shunda yigitlarim kosani to‘ldirib, qizlarim o‘zlari ichib yura beradi”, -debdi.

Shirinning tilagini eshitgan Mahinbonu darhol ishga kirishadi, tosh kesuvchilarni yollaydi. Shopur otboqar, Farhod toshkesuvchi bo‘lib ishga olinadi. Sipohiyilar ikki mardikorni Mahinbonu va Shiringa ro‘para qilishadi. Farhod Shirinni tanib hushidan ketadi, lekin birozdan keyin o‘ziga keladi. Mahinbonudan topshiriqni olib ish boshlash uchun tog‘ga yo‘l oladi. Shopur esa saroyda otboqarlik qila boshlaydi

Shirin har kuni hovuz kovlayotgan mardikorlar va Farhodning ishidan xabar oladi. Farhodga o‘z qo‘li bilan sharob taklif qiladi. Shirinning sharobini ichgan Farhod, kuchiga kuch qo‘silib, ishini mehr bilan davom ettiradi. Shirin Farhodning uni sevib qolganini his qiladi. “Uning sa’y-harakatlari menga bo‘lgan muhabbat tufaylidir” deb o‘ylaydi. Farhod kecha-yu kunduz Shirin muhabbat bilan ishlaydi, tog‘da toshlarga va yovvoyi hayvonlarga Shirin haqida gapirib beradi.

Bu orada otboqar Shopur birdaniga hech kimga bildirmay shahardan chiqib ketadi. Jo‘ramiz ismli sultonning saroyiga keladi. Bu yerda ham otlarni parvarish qiladi. Shu asnoda sultonning o‘g‘li bilan do‘stlashadi. Shahzoda o‘zining kanizaklari va mard yigitlari bilan tomoshaga chiqadi va bir boyning chorbog‘ida to‘xtaydi. Yigit-qizlar mast bo‘lib uxlab qolishadi, otlar bog‘ni payhon qilib tashlaydi. Odil sulton Jo‘ramizning buyrug‘i bilan jallodlar otlarning oyog‘ini, qancha odamlarning qulqburnini kesadi, nechalarni o‘ldirib yuboradi; kanizaklarning sochini kesib, chaqqon qilib har kimga berib yuborishadi. Jallodlar shahzodani o‘ldirmay, ikki qo‘lini orqasiga bog‘lab podshoning qoshiga olib

kelishadi. Jo‘ramiz hammaga dars bo‘lsin deb, o‘g‘lini qamoqqa tashlab jazolaydi.

Shopur shahzodaning ahvoliga achinib, sultondan iltimos qilib, uni zindondan olib chiqib ketadi va himoyasiga oladi. Shahzoda har kuni yig‘lardi, chunki uning sevimli kanizagini otasi o‘ldirgandi. Bundan xabar topgan Shopur shahzodaga Shirin haqida gapirib beradi. Shahzoda Shirinni ko‘rish istagi bilan yonadi. Shopur shahzodaga qirq kun ichida Shirinni olib kelishga va’da berib, Mehinbonu shahriga keladi. Yana saroyda ishlay boshlaydi. Shirin ovga chiqqanida shahzodaning suratini qog‘ozga chizib, unga ko‘rsatadi. Hayajonga tushgan Shirin shahzodani sevib qoladi va uni ko‘rishi xohlaydi. Shopur: ”Mahinbonuga odamlarim bilan sahroga tomoshaga chiqmoqchiman, degin. Uchqur otini so‘ragin”, - deb o‘rgatadi. Mahinbonu otidan voz kechgisi kelmasa ham, Shirinni xafa qila olmaydi. Yo‘lga chiqqan Shirin atrofidagi hamrohlaridan uzoqlashib, g‘oyib bo‘ladi. Yigit-qizlar uni izlab topa olmaydilar. Mahinbonu ”Shirindan ayrilib qoldim. Otni shuning uchun bermayman degandim” deb, oh-u faryod qiladi. Butun xalq uni halok bo‘ldi deb o‘ylab, Shirinning ortidan aza tutadi.

Ot Shirinni uch oylik yo‘lga olib boradi. Yo‘lda uchragan buloq yonida sovib olish va yuvinish uchun suvgaga tushadi. Qirq kun o‘tib, Shopur kelmaganidan keyin shahzodaning o‘zi yo‘lga tushadi. Buloq boshida g‘usl qilayotgan Shirinni ko‘radi, lekin tanimaydi. Go‘zal qiz uyalmasin deb teskari qarab turadi, uning suvdan chiqishini kutadi. Qizning g‘oyib bo‘lganini anglab, yo‘lida davom etadi, Shirinning saroyiga yetib boradi. Shopurdan Shirinning uning ishqida yo‘lga tushganini biladi, chashmadagi qiz Shirin ekanini fahmlaydi. Mahinbonu shahzodani Shirinning mehmoni ekan deb, unga izzat-ikrom ko‘rsatadi. Bu orada Shirin shahzodaning bog‘iga yetib keladi, ammo kanizaklar ”Sevganimizni bu qiz olib ketib qoladi” deb, uni qamab qo‘yishadi. Shopur shahzodaning qasriga kelib, Shirinni qutqaradi; ular birga Eronga qaytadilar.

Shirin Farhodning ishini kuzatish uchun tez-tez tog‘ga chiqar, Farhodga sharob tutar, Shirinni ko‘rgan Farhod ishini yanada ishtiyoyq bilan bajarar edi. Kanizaklar Shiringa Farhod haqida:” Toshga tesha

chopsa, “Yo Shirin!” deb chopadi. “Yo Xudo” demaydi. Sizga oshiq bo‘lsa kerak”, -deyishadi. Shirin ishonmaydi.

Shirin to‘rt yildan beri saroyida mehmon bo‘lib yurgan, boshdan oyoq la’l bilan bezangan shahzodani dangasalikda ayblaydi va qo‘pollik bilan uning bu yerda turish muddati cho‘zilib ketganini aytadi. Shahzoda bundan qattiq xafa bo‘lib, saroyni tark etadi va bir necha kun yo‘l yurib, bir chorbog‘da to‘xtaydi. Bog‘bondan otasi Jo‘ramizning o‘limi haqidagi xabarni eshitadi. Rum yurtiga yordam so‘rab boradi. Rum podshosining qiziga uylanadi, Rum lashkarining kuchi bilan yov qo‘lidan otasining mulkini ajratib oladi. Otasining taxtiga o‘tiradi. Shunda Shirindan bir xat oladi. Shirin unda shahzodaning to‘rt yildan beri indamay yurganidan xafa bo‘lib qattiq gapirganini, yurtiga borsa,sovchi jo‘natib, to‘ytomosha qilib meni oladi, degan maqsadda shu ishni qilganini yozgan edi. Xatdan xabar topgan xotini “Javobimni ber!” deb janjal qiladi. Shahzoda elchi maktubni adashtiribdi, deb zo‘rg‘a malikani tinchlantiradi va Shirindan voz kechadi.

Shirin tez-tez Farhodning yoniga keladi, mahoratiga tasannolar aytadi. Uning Xitoy xonining o‘g‘li ekanligini bilib oladi. Bu orada Eron sultoni Xusrav Shirinning ta’rifini eshitib, unga maktub yo‘llaydi, sevib qolganligini aytadi. Shirin “Hali yoshman” deb xatini qaytaradi. Xusrav uning bu harakatidan “Shirinning xayoli menda ekan” deb o‘ylaydi. Shunda bir jodugar ayol Xusravning oldiga kelib: “Shirin senga mos. Biroq seni u yor deb qabul qilmaydi. Uning o‘z sevgani bor. Farhod unga xaridor. Agar Farhodni o‘ldirsang, unga erisholasan”,- deydi. Xusrav shundan keyin Farhodni yo‘q qilish haqida o‘ylaydi. Elchi orqali unga “Shirinning hurmati, kelsin” deb xat jo‘natadi. Shirinning hurmati deb, Farhod Xusravning yoniga boradi. Xusrav shahzoda Farhodga qarab: “Agar bu yerkordan ketmasang, seni o‘ldiraman, tirik qolsang, zindonga tashlayman” deb do‘q urgan bo‘lib, bir-ikki og‘iz so‘z aytadi. Shunda Farhod: “Bu so‘zlaring bilan meni qo‘rqtolmaysan. O‘lim desang men yurtimdan chiqqan paytim o‘lganman”,- deydi. Farhod Xusravning tahdidlariga bosh egmaydi. Xitoy hukmdorining kuchidan qo‘rqan Xusrav hazillashganini aytib uni qo‘yib yuboradi.

Bir kuni Shirin Farhodning oldiga kelganida, Farhod “Yorim tog‘larni tomosha qilsin” deb, Shirinni oti bilan birga yelkasiga ko‘tarib oladi. Shunda Shirinning Farhodga ishqisi ziyoda bo‘ladi.

Xusrav kuch bilan Shirinni olish uchun qo‘shin tortib keladi. Mehinbonu o‘z lashkari bilan, Shirin ham jangchi qizlari bilan urushga kiradi. Farhod tog‘dan tushib, ularga yordam beradi. Jang maydonida Farhod va Xusrav yuzma-yuz kelishadi. Xusrav qo‘shini orqaga chekinadi. Xusrav keyin yana bir necha bor urinsa ham, Shirinni yenga olmaydi. Farhod yetti yildan keyin ishni tugatadi va Shiringa ish tugaganligi haqida xabar yuboradi. Bu orada Farhod Shirinning kelishini, Shirin esa Farhodning kelishini kutadi. Jodugar kampir yana Xusrav bilan reja tuzadi. Jodugar Shirinning enagasi qiyofasida tog‘ga chiqadi va Farhodga Shirinning o‘lganini aytadi. Farhod ishonmaydi, cho‘kich bilan jodugar kampirni o‘ldirib, daryoga otadi.

Farhodning xizmatidan mamlakat obod bo‘ladi. Mahinbonu qizlari bilan maslahatlashib, Farhod va Shirinning to‘yini qilishga qaror qiladi, tayyorgarlikni boshlab yuboradi. Yurtda katta to‘y-tomosha qilib, oshiqlama’shuqlar bir-biriga yetishadi³⁰.

2.3. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan “Farhod va Shirin” dostonining o‘zbek va turk olimlari tomonidan o‘rganilishi

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” asarini yaratishda salaflari dostoni bilan kifoyalanmadni, tarixiy manbalarga, xalq og‘zaki ijodi durdonalariga murojaat qildi. Ulug‘ shoir xalq ijodini rang-barang gullar ochilgan chamanga, durlarga kon tubsiz dengizga qiyoslagan. Afsuski, shoir qaysi afsona va dostonlardan foydalanganini bilolmaymiz. Navoiy xalqdan olgan xazinani yana xalqqa qaytarib berdi. Uning “Farhod va Shirin” idan ilhomlangan xalq juda ko‘p ertak va dostonlarni yaratdi.

O‘zbek xalqi tomonidan asrab kelingan, sevib ijro etilgan “Farhod va Shirin” hikoyasi ko‘plab tadqiqotchilarining e’tiborini tortdi, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida “Farhod va Shirin” variantlarini

³⁰Yo‘ldosh o‘g‘li, Fozil. Farhod va Shirin. (Yozib oluvchi: Buyuk Karimov; nashrga tayyorlovchi: M.I. Afzalov). - Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1966.

yozib olish hamda ilmiy o‘rganish boshlandi. A. Kushakevich, N.Lyapunova, N. Volinskiy va boshq rus folklorshunoslari “Farhod va Shirin” variantlarini yozib oldilar va nashr qildilar. Masalan, A. Kushakevich xalq orasida tarqalgan ertak va afsonalarni to‘plab, qog‘ozga tushirib, 1871 - yilda rus tilida nashr ettirgan. N. Lyapunova yozib olgan variantning xotimasida Turkiston Rossiyaga qo‘shiladi, Mirzacho‘lga suv chiqadi. Suv faqat Mirzacho‘lga emas, o‘liklarga ham jon bag‘ishlaydi. Farhod va Shirin tirilib qabrdan chiqib keladi va xursandliklaridan bir-birlarining bag‘riga otiladi. A. Y. Yakubovskiy va K. V. Treverlar esa Farhod va Shirin haqidagi mif va afsonalar bo‘yicha tadqiqot ishlari olib bordilar.

O‘zbek folklorshunoslari Nazarmat Egamnazarov (1939), Mansur Afzalov (1944), Muzayyana Alaviya (1945) va boshqalar tomonidan “Farhod va Shirin” ning turli variantlari yozib olindi. 1966-yilda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan doston nashr etildi.³¹

Aslida, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li ijodi o‘zbek ziyolilari e’tiborini 1922-yildanoq o‘ziga jalb qilgan. Dastlab G‘ozi Olim Yunusov, keyinchalik V. M. Jirmunskiy, Hodi Zarifov, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Muhammadnodir Saidov kabi olimlar, keyingi paytda esa To‘ra Mirzayev, Bahodir Sarimsoqov, Shomirza Turdimovlar baxshi ijodini tadqiq etishda jonbozlik ko‘rsatdilar. Bugungi kunda baxshidan yozib olingan terma va dostonlarga bag‘ishlangan katta-kichik tadqiqotlar, ilmiy maqolalar soni besh yuzga yetadi.

M.Afzalov 1950-yilda folklor ma’lumotlari asosida “Farhod va Shirin” dostonining xalq varianti haqida” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Dissertatsiyada Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoniga Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining shu nomdagagi xalq dostoni qiyosiy ravishda o‘rganiladi. Olim mavzu tadqiqiga kirishishdan oldin izlanishlar asnosida o‘zi to‘plagan materiallarni ham qiyoslab o‘tadi, ertak, rivoyatlarning o‘zbek xalqi hayoti bilan bog‘liq ravishda talqin qilinganiga urg‘u beradi. Shuningdek, olim ishda ilmiy maqola shaklida Fitrat tomonidan o‘rganilgan dastlabki ma’lumotlarni kengroq

³¹ Mallayev, Natan. O‘zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. – T.: 1976.-B.459

tahlilga tortadi. Alisher Navoiyning dostoni mazmunini Fozil Yo'ldosh o'g'liga yetkazishda vosita bo'lib xizmat qilgan yoxud xalq orasida keng tarqalgan ikkilamchi asarlarni ta'riflab o'tadi. Jumladan, XIX asrda Umar Boqiy, Mahzun tomonidan, 1908-yil Mir Maxdum ibn Shohyunus tomonidan nasriy bayon qilingan "Qissai Farhod va Shirin", xalq orasidagi Farhodning suv chiqarishi bilan bog'liq ertak va afsonalarni tahlilga tortadi. Jumladan, bu dostonni Fozil Yo'ldosh ustozini Yo'ldosh shoirdan eshitganini aytib, shu nomdag'i xalq qissalari katta ta'sir ko'rsatganini ta'kidlab o'tadi: "Qissalar xalq shoiri – baxshilar ijodiga ma'lum darajada ta'sir etib kelgan. Xat-savodli bo'lmanan xalq shoiri va dostonchilari qissalarni savodlilarga o'qitib tinglar va o'z hofizalarida saqlab, keyin xalq dostonlari usulida asarlar yaratganlar". Dissertatsiya ishi Fozil Yo'ldosh o'g'lining kiritgan o'zgartirishlari va badiiy mahoratini ochishga qaratilgan ish sifatida muhim qimmatga ega³². Shuningdek, N.Mallayevning "Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti"(1974), S.Erkinovning "Sharq adabiyotida Farhod qissasi" (1985) va "Navoiy "Farhod va Shirin"i va uning qiyosiy tahlili" (1971) monografiyalari, A.Qayumovning "Farhod va Shirin" sirlari" (1979) asarlarida Fozil Yo'ldosh o'g'lining dostoni haqida ma'lumotlar berilgan.

Folklorchilar Navoiy dostonlari bilan xalq dostonlari o'rtasida ma'lum bir vosita - manba mavjud deb hisoblaydilar, lekin bu manba aniq emas³³. Fozil shoiri , Natan Mallayev ta'kidlaganidek, mumtoz adabiyot bilan bevosita emas, bilvosita tanish bo'lgan. Navoiy dostonlarining nasriy bayonlarini kimgadir o'qittirib eshitgani yoki navoiyxonlik kechalarida dostonlarni tinglagani haqiqatga yaqindir, chunki Navoiy dostoni an'analarini baxshi kuylagan dostonda yetakchidir. Bir necha epizodlar esa Nizomiyning "Xusrav va Shirin"iga mos keladi.Natan Mallayev bir asarda an'anaviy Xusrav obrazining Jo'ramiz (Xurmuz)ning o'g'li shahzoda va Xusrav obrazlariga bo'linib ketishi, ya'ni har ikkala dostondagi Xusravlarni saqlab qolish istagi dostonning sujeti va

³² Tojiboyeva O., Mansur Afzalovning ilmiy faoliyati xususida. "O'zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyat, metodologiya, yangicha yondashuv" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. 2023-yil 20-may. - B.453-456

³³ Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. - Toshkent: 1974.- B.272

kompozitsiyasida birmuncha chalkashliklar keltirib chiqargan, deb hisoblaydi³⁴. Olimning fikricha, bir necha epizodlarda qatnashgan shahzoda keyin “unutiladi”. Bu obrazning mavjudligi Shirin obraziga salbiy ta’sir ko’rsatgan: bosh qahramon ishqda beqaror, ehtirosga berilgan ayol qiyofasiga kelib qolgan. Chin do’st Shopur obrazi ham xiyla parokandaroq bo‘lib qolgan: u dam Farhodga yordam beradi, dam shahzodaga. Bu kamchiliklarga qaramay, xalq dostonida muvaffaqiyatli ishlangan obrazlar talaygina. Bular Farhod, Chin xoqoni, Jo‘ramiz, Mehinbonu va ot obrazlaridir.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li ijodiga qiziqish Turkiyada ham kuchli. 2019-yilda folklorshunos Emina Bakar professor Huseyin Baydemir rahbarligida “Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining “Farhod va Shirin” hikoyasi bo‘yicha bir tahlil” mavzusida magistrlik ishini muvaffaqiyatli himoya qildi. Ilmiy ishda o‘zbek dostonlarining tasnifi, baxshichilik maktablari haqida ma’lumot berilgan; Fozil shoir va A.Navoiy dostonlari qiyosiy o‘rganilgan, shuningdek tadqiqotga Fozil shoir kuylagan dostonning o‘zbekcha matni va turk tiliga tarjimasi ilova qilingan³⁵. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, olima Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan dostondagi motivlarni Stif Tompson taklif qilgan "Xalq adabiyotining motiflar indeksi" katalogi bo‘yicha tadqiq etgan. Badiiy asardagi motivlarni aniqlashda maxsus usul qo‘llanilmaydi. Xalq hikoyalarining motivlarga boyligi uning mavzusi va ta’sirlantirgan manbasiga bog‘liq. Agar hikoya qahramonlik yoki oshiqlar hayoti haqida bo‘lsa, bunday asar motiv jihatidan zaif bo‘ladi, chunki asar bir necha motivlar ustiga quriladi, deydi Alptekin³⁶. Olimaning fikricha, tadqiq etilayotgan dostonda aniqlangan motivlarning aksariyati “Motiflar indeksi” katalogida aniqlangan motivlarga mos keladi. Katalogdan farqli o‘laroq, aniqlangan yangi motivlar soni yetti bo‘lib, ishda motiv boshida (T) qo‘yish bilan ifodalangan. Lekin shunga qaramay, “dostonni motiv jihatidan mukammal deb bo‘lmaydi, unda xalq dostonlarida ko‘p uchraydigan

³⁴ Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. - Toshkent: 1974.- B.276.

³⁵ Bakar, E. Fazil Yoldaşoğlu’nun Ferhat ile Şirin hikâyesi üzerine bir inceleme. Yüksek lisans tezi.- Erzurum, 2019.

³⁶ Alptekin, A. Berat. Halk hikâyelerinin motif yapısı (6. Baskı). Ankara:Yay. 2013.-S.296

ayrim motivlar qo'llanmagan yoki juda kam qo'llangan. Masalan, mifologik motivlar kam uchraydi; o'lim, taqdir burilishlari, oldindan tayin qilingan kelajak, omad va omadsizlik, mukofot va jazo, din, hazil-mutoyiba motivlari uchramaydi” deb hisoblaydi turk olimasi.

Ushbu ishda Tompsonning Yevropa xalqlari og'zaki adabiyotida qo'llangan motivlar indeksi sarlavhalarini keltirishni joiz deb bildik, chunki xalq dostonini motivlar bo'yicha indekslash o'zbek folklori uchun yangilik hisoblanadi:

- A. Mifologik motivlar
- B. Hayvonlar
- C. Taqiqlangan narsalar
- D. Sehr - jodu
- E. O'lim
- F. Favqulodda holatlar
- G. Devlar, jodugar va sehrgarlar
- H. Imtihonlar
- J. Donishmandlar va ahmoqlar
- K. Aldashlar
- L. Taqdir burilishlari
- M. Kelajakni bashorat qilish
- N. Omad va omadsizlik
- P. Jamiyat
- S. Mukofot va jazolar
- R. Asirlar va qochoqlar
- S. Anormal shafqatsizliklar
- T. Jinsiyat/ sevgi-muhabbat
- U. Hayot tarzi
- V. Din
- V. Xarakter xususiyatlari
- X. Hazil-mutoyiba
- Z. Turli motivlar

Emina Bakarning tadqiqotida Fozil Yo'ldosh o'g'lining dostoni shu katalog asosida tahlil etilgani uchun, olima aniqlagan motivlar ro'yxatini to'liq keltiramiz:

B. Hayvonlar

(T) B11. Og‘zidan olov purkaydigan ajdaho

Farhod Yunon o‘lkasiga Luqmoni Hakimni izlab borganida og‘zidan olov purkaydigan ajdaho bilan kurashadi.

(T) B41.1 Favqulodda asov ot

Mahinbonuning bir oti bor, uni boshqarib bo‘lmaydi va u nihoyatda tez chopadi.

C. Taqiqlangan narsalar

C320. Yopiq obyektning ichiga qarashni taqiqlash

Farhod xazina xonasidan topgan sandiqning ichida nima borligiga qiziqadi, lekin xoqon otasi bu qutini ochish taqiqlanganligini aytadi.

C563. Qirolning taqiqlari

Jo‘ramiz o‘z xalqining mol-mulki va hayotiga zarar yetkazishni taqiqlagan.

C980. Taqiqni buzganlik uchun turli jazolar

Jo‘ramiz saxiy boyning uzumzorini payhon qilgan o‘g‘lini qamoqqa tashlaydi. Shahzodaga tegishli kanizaklarning sochini, yigitlarning qulqburnini, otlarning tuyoqlarini kestiradi.

D. Sehr -jodu

D812.1. Azizlardan olingan sehrli sovg‘a

Farhod Yunon mamlakatida g‘orda yashaydigan qariyadan ajdaho olovidan himoyalanish uchun malham oladi.

D1163. Sehrli oyna

Farhod xazina xonasidagi sandiqdan Iskandarning sehrli oynasini topadi.

F. Favqulodda holatlar

F531. Dev

Farhod Yunon mamlakatida yovuzlik ramzi bo‘lgan qora dev bilan yuzma-yuz keladi.

F531.6.12.6. Odamlar tomonidan devlarning o‘ldirilishi

Farhod Yunon mamlakatida uchragan devni o‘ldiradi.

F565. Jangchi ayol

Mehinbonu, Shirin va ularning to‘rt yuz nafar kanizaklari Xusrav askarlariga qarshi jang qiladilar.

F575.1. Favqulodda go‘zal ayol

Shirinning chehrasida quyoshni xira qiladigan go‘zallik bor.

F.601.7 Hayvonlarning favqulodda hamrohligi

Tog‘da ishlaydigan Farhod yo‘lbars, qoplon, sher va hokazolarni ko‘radi. Yirtqich hayvonlar uning hamrohiga aylanadi.

F.612.1. Kuchli qahramon juda ishtiyoqli bo‘lgani uchun uyini tark etadi

Shahzoda Farhod Shirinni topish ilinjida toj- taxt, saltanat va Xitoy mamlakatini tark etadi.

F674. Iste’dodli rassom

Shopur - Shirin va Jo‘ramisning o‘g‘li rasmini chizgan iste’dodli rassom.

(T) F829.4. G‘ayrioddiiy oyna

Farhod xazinadagi g‘ayrioddiiy oynaga qarab, Shirin va uning vatanini ko‘radi.

G. Dev, jodugar va sehrgarlar

G200. Sehrgar, jodugar

Jodugar kampir Xusravga Shirinni qo‘lga kiritishda yordam beradi.

G.210. Jodugarlar (sehrgarlar) portreti

Xusravga yordam beradigan jodugar dunyoda nima bo‘layotganini biladigan, peshonasi ajinlar bilan qoplangan yolg‘onchi ayoldir.

G278. Jodugarning o‘limi

Farhod Shirinning o‘limi haqida yolg‘on xabar olib kelgan jodugarni o‘ldiradi va baliqlarga yem qiladi.

H. Imtihonlar

H10. Aqli, bilimli qahramonlar

Chin xoqoni, Mahinbonu, Jo‘ramiz aqli, bilimli insonlar sifatida tasvirlangan.

H111. Kiyimidan tanib qolish

Shirin Jo‘ramizning o‘g‘lini qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan kiyimi va bashang qiyofasidan taniydi.

(T)H123.1. Ko‘zguda ko‘ringan qizni tanib qolish

Saroyda mardikor Farhod ko‘zguda ko‘ringan qizni – Shirinni tanib qolib, hushidan ketadi.

(T)H921.1.1.1. Hukmdorning topshirig‘i

Shirinning orzusini amalga oshirish uchun Mahinbonu odamlariga tog‘ni teshib suv chiqara oladigan ustani topib kelishni buyuradi.

H960. Qobiliyat va aql bilan bajariladigan vazifalar

Farhod yetti yilda tog‘ni teshib, shaharga suv keltirishga muvaffaq bo‘ladi.

H1210.2 Hukmdor tomonidan muammoga yechim qidirilishi

Chin xoqoni o‘g‘lining ko‘nglidagi mahzunlik va dardning sababini topishga harakat qiladi.

H1213.1.2. Rasmda tasvirlangan insonning o‘zini qidirib topish

Jo‘ramizning o‘g‘li - shahzodaning rasmini ko‘rib, oshiq bo‘lib qolgan Shirin unga yetishish yo‘llarini izlaydi.

H1228.2. Farzand o‘lgan otasi intiqomini olish uchun yo‘lga tushadi. Jo‘ramizning o‘g‘li o‘ldirilgan va mamlakati fath etilgan otasining intiqomini olish uchun Rumda qo‘sishin to‘plab, yo‘lga tushadi.

H1346. Sehrli ko‘zguning tilsimini yechish

Farhod otasining xazinasida ko‘rgan ko‘zguning tilsimini yechishga kirishadi.

(T)1381.3.1.1.1.1.1. Qahramonning ko‘zguda ko‘ringan qizni so‘rab –surushtirishi

Farhod Iskandar oynasida ko‘ringan qizga yetishish yo‘llarini izlaydi, so‘rab-surushtiradi.

J. Aqlilar va ahmoqlar

J151. Keksa odamlardan olingan ma’lumotlar

Farhod donishmand choldan o‘zini ajdaho va devlardan himoya qilishni o‘rganadi. Farhod ikkinchi qariyadan xazinadagi sandiqning kalitini oladi.

J652. Ogohlantirishlarga e’tibor bermaslik

Mahinbonuning otini berishni istamaganiga va barcha ogohlantirishlariga qaramay, Shirin asov otni olib, yo‘lga tushadi.

K. Aldov va hiylalar

K1900. Hiylalar va soxtakorliklar

Jodugar kampir Farhodga Shirinning o‘limi haqidagi yolg‘on xabarni yetkazadi.

P. Jamiyat

P10. Shohlar

Xitoy xoqoni, Yunon podshohi, Mahinbonu, Jo‘ramiz sulton, Rum podshohi, Xusrav.

P30. Shahzoda (shahzodalar)

Farhod, Jo‘ramizning o‘g‘li.

P31.1.1 Shahzoda toshyo‘nuvchi sifatida

Farhod toshyo‘nuvchilik kasbini qiziqib o‘rganadi.

P40. Malikalar

Arman malikasi Shirin va Rum malikasi.

P170.0.1 Kanizaklar

Shirinining xizmatida to‘rt yuzta xizmatkor qiz bor. Jo‘ramizning o‘g‘lining ham kanizaklari ko‘p.

P310. Do‘stlik

Shopur Farhod bilan do‘stlashadi.

Shopur Jo‘ramizning o‘g‘lini qamoqdan olib chiqib, u bilan do‘stlashadi.

P320. Mehmondo‘stlik

Mehinbonu Jo‘ramizning o‘g‘li - shahzodani Shirinining mehmoni ekanligini bilib, eng yaxshi tarzda mehmon qiladi.

R. Asirlar va qochoqlar

R41.3. Zindonga qamab qo‘yish

Jo‘ramizning o‘g‘li - shahzodaning joriyalari Shirinni zindonga tashlaydilar.

R111. Qizning asoratdan qutulishi

Shopur Shirinni zindondan qutqaradi.

S. Anormal shafqatsizliklar

S133 Boshini kesib o‘ldirish

Farhod oldiga kelib yolg‘on gapirgan jodugarning boshini majaqlab o‘ldiradi.

T. Jinsiyat/ sevgi-muhabbat.

T11. Ko‘rmasdan sevib qolish

Jo‘ramizning o‘g‘li Shopur og‘zaki tasvirlab bergen Shirinni ko‘rmasdan sevib qoladi.

T11.2. Rasmni ko‘rib sevib qolish

Shirin Jo‘ramizning o‘g‘lini Shopur chizgan rasmda ko‘rib, sevib qoladi.

T24.2.3. G‘ayrioddiy go‘zallikni ko‘rganda hushidan ketish

Farhod Shirinni birinchi ko‘rganida uning go‘zalligidan mast bo‘lib hushidan ketadi.

T92.11 Raqiblarning bir qiz uchun qarama-qarshiliklari.

Xusrav va Farhod Shiringa bo‘lgan muhabbatlari tufayli dushmaniga aylanadilar.

T100. Nikoh

Farhod va Shirin ahd-u paymon qilib turmush qurishadi.

T104. Chet el podshohi malikaga uylanish uchun urush e’lon qiladi.

Shiringa shon-shuhrat, boylik bilan egalik qila olmasligini anglagan Xusrav uning shahriga urush e’lon qiladi.

T596. Bolaga ism qo‘yish

Chin xoqoni o‘g‘liga “Farhod” deb o‘zi ism qo‘yadi.

W. Xarakter xususiyatlari

W31. İtoat

Jo‘ramizning odamlari uning amrlariga itoat etadi.

Mehinbonuning odamlari uning amrlariga itoat etadi.

Mehinbonu Shirinning tog‘dan suv keltirish istagiga itoat etadi.

Farhod Shirinning amrlariga itoat qiladi.

W32. Jasorat

Farhod Yunon o‘lkasida ajdaho va dev bilan olishadi.

W.33. Qahramonlik

Xusrav Shirinning yurtiga urush e’lon qilganda Farhod uning ulkan qo‘shiniga bir o‘zi quolsiz qarshi chiqadi.

Shirin va Mehinbonu askarlari bilan birga Xusravga qarshi jang qiladilar.

W34. Bog‘lanib qolish

Farhodning ko‘ngli Shiringa bog‘lanib qoladi.

W136. Yolg‘onchilik

Jodugar kampir Farhodni aldaydi.

Jo‘ramizning o‘g‘li Rum podshohining qizi bo‘lgan rafiqasini Shirindan kelgan maktub borasida aldaydi.

X.Hazil

X1810. Turli narsalar haqida aytilgan hikoyalar

Chin xoqoni o‘g‘li Farhodga xazinadagi sandiq hikoyasini so‘zlab beradi.

Z. Turli motivlar

Z10.1. Boshlanma qoliplari. Sodda boshlanma

- O‘tgan zamonda Chin o‘lkasida bir podshoh bor edi.
- Bu o‘lkaning podshohini Jo‘ramiz der edilar.
- Kunlardan bir kun ...

Z10.2. Tugallanma qoliplari. Konkret tugallanma. Murod-maqsadga yetish.

Farhod bilan Shirin turmush qurishadi.

Z10.3. Bog‘lash va o‘tish formulalari. Voqeа joyini yoki qahramonlarni o‘zgartirish uchun qo‘llanadigan qoliplar.

- Shu tarzda yurib bir shaharga yetib keldilar.
- Bu shaharning podshohi Mahinbonu edi.
- Bu so‘zni eshitib, podshoh jallodni chaqirib, bir so‘z aytib turgan ekan.
- Endi so‘z navbati Shiringa keldi.
- Endi Eron podshohidan eshititing...

Z64. Maqollar

Makka borgan qilar ekan hajini,
Choldevorda yotgan ko‘rar ekan bo‘jini .
Qo‘l yugurigi oshga, til yugurigi boshga .

(T) Z64.1. Iboralar

bir gap qochgan, bovur bosib qolgan, parvoyiga kelib g‘am yemas.

Z65. Ranglar (qizil va qora)

Z71. Sonlar (uch, yeti, to‘qqiz, qirq)

O‘lkalar: Chinmochin, Yunon o‘lkasi, Eron, Rum³⁷.

³⁷ Bakar, E. Fazıl Yoldaşoğlu'nun Ferhat ile Şirin hikâyesi üzerine bir inceleme. Yüksek lisans tezi.- Erzurum, 2019.- s. 64-73

Olima xalq dostonlarining asosiy belgisi bo‘lgan g‘ayrioddiyliklar, kuchli mubolag‘alar bu asarda kam uchragani uchun Fozil shoir dostonini motiv jihatidan boy emas degan yanglish xulosaga keladi.

III BOB. FOZIL YO‘LDOSH O‘G‘LI KUYLAGAN “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI POETIKASI

3.1. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining “Farhod va Shirin” sujetiga qo‘shgan yangiliklari

M.Afzalov ta’kidlaganidek, Navoiy tomonidan klassik adabiy asar sifatida taqdim etilgan “Farhod va Shirin” dostoni (keyingi o‘rinlarda masnaviy deb keltiriladi) Fozil Yo‘ldosh og‘lining “Farhod va Shirin”i (keyingi o‘rinlarda xalq dostoni deb keltiriladi) bilan farqli va o‘xhash jihatlarga ega. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li asar sujetiga qanday yangiliklarni qo‘shganini aniqlash maqsadida ikkala asar qahramonlari va sujeti taqqoslandi. Fozil shoir tomonidan sujetga qo‘shilgan yangiliklar yozuvda ajratib ko‘rsatildi.

1. Farhod va Shirin oilalari

Xalq dostonida ham, masnaviyda ham Farhod Xitoy xoqonining o‘g‘li. *Shirin Eron sulton Mahinbonuning singlisi*, masnaviyda esa Arman malikasi Mehinbonuning jiyani.

2. Farhod va Shirinning tug‘ilishi

Farzandsizlik motivi xalq dostonida ham, masnaviyda ham qo‘llangan. Ikkala variantda Xitoy xoqoni uchun Farhod – uzoq kutilgan farzand. Ikkala asarda ham Shirinning tavalludi haqida hech qanday ma’lumot yo‘q.

3. Farhod va Shirinning ulg‘ayishi va maktabga borishi

Xalq dostonida Farhod kuchli, polvonkelbat bo‘lib ulg‘ayadi. Besh yoshidan boshlab maktabda o‘qydi, mulla bo‘ladi. Masnaviyda Farhod-“Qur‘on” ni bir yilda yod olgan, diniy, dunyoviy, harbiy bilimlarni o‘rgangan, tariqat ilmini ham o‘zlashtirgan har tomonlama yetuk solik inson. Har ikkala asarda Shirinning ulg‘ayishi va tarbiyasi haqida so‘z yuritilmagan, faqat o‘qigani ta’kidlangan.

4. Farhodning tosh yo‘nuvchi bo‘lishi

Xalq dostonida Farhodning otasi o‘g‘lini g‘amgin holatini unuttirish uchun sayrga yuboradi. Farhod tosh yo‘nuvchining ishiga qiziqib qolganini eshitib, tosh yo‘nuvchilar ustaxonasini ochib beradi. Farhod shu ustaxonada kasb sirlarini o‘rganadi. Masnaviyda Farhod to‘rt qasr

qurilishida ishlayotgan mohir ustalar ishini kuzatish uchun keladi va ularning ishiga qiziqib qoladi, to‘rt yil ichida toshyo‘narlik, me’morlik va naqqoshlik kasblarini mukammal o‘rganadi.

5. Farhod va Shirinning bir-birlarini sevib qolishlari

Har ikkala asarda Farhod xazinadagi sandiqda saqlanayotgan oynada Shirinni ko‘rib sevib qoladi. Shirin ham uning orzusini amalga oshirayotgan usta yigitni bir ko‘rishda yoqtiradi. Masnaviyda Shirin ahdiga sodiq, odamiylikni birinchi o‘ringa qo‘yadigan vafodor oshiq. *Xalq dostonidagi Shirin dastlab Farhodni yoqtirganday bo‘ladi. Keyin Jo’ramizning o‘g‘lini sevib qoladi. Uning Rum malikasiga uylanganini eshitib, yana Farhodga e’tibor qaratadi. Fozil Shoирning Shirini sevgi bobida qat’iy inson emas.*

6. Farhodning quti sirini ochish uchun yo‘lga chiqishi va duch kelgan voqealar

Farhod ikkala asarda ham sandiq va ko‘zgu sirini ochish uchun Yunon yurtiga boradi. *Xalq dostonida Luqmon Hakimni qidiradi. Farhod bu yerda ikki qariya bilan uchrashadi. Biri unga dev va ajdahodan himoyalanish uchun malham beradi, ikkinchisi qutining kalitini beradi.* Masnaviyda Farhod ko‘zguning sirini biladigan Suqrotni topish uchun Suhaylo va Xizr yordamidan foydalanadi. Ikkala hikoyada ham keksa donishmandlar vafot etadi. Masnaviyda Islom talablari asosida murdalar yuvilib, dafn etiladi.

7. Farhod, Chin xoqoni va mulozimlar dengizda bo‘ronga duch kelishadi

Ikkala asarda ham Farhod, Chin xoqoni va mulozimlar dengizda (*daryoda*) bo‘ronga duch kelishadi. Kuchli to‘lqin ularni qirg‘oqqa chiqarib tashlaydi. *Xitoy xoqoni o‘g‘lini o‘lgan deb o‘ylab, askarlari bilan o‘z yurtiga qaytib keladi.* Masnaviyda Chin xoqoni o‘g‘lining o‘limiga ishonmaydi. *Xalq dostonida Farhod bu ofatdan yog‘ochga osilib, qirg‘oqqa chiqib qutuladi.* Masnaviyda esa bir necha kun taxtaga yopishib dengizda suzgan hushsiz Farhodni savdogarlar ko‘rib qolishadi va kemaga olishadi.

8. Farhodning Shopur bilan uchrashuvi

Xalq dostonida daryodagi falokatdan so‘ng qirg‘oqqa chiqib olgan Farhod Shopurni uchratadi va ular birgalikda ish topish uchun Shirinning yurtiga boradilar. Masnaviyda savdo kemasi bir orolda to‘xtagan payti Shopur g‘amgin Farhodga qiziqib qoladi. Shopur Farhodning “tushini” eshitib, uning nega ko‘zi yoshli, ko‘ngli vayron ekanini tushunib yetadi va yordam qo‘lini cho‘zadi. Farhodni Arman yurtiga – Shirinning huzuriga olib boradi.

9. Farhodning suv yo‘llarini ochish ishiga kirishib ketishi

Xalq dostonida Farhod va Shopur mardikor bo‘lib ishga yollanadi: biri tog‘da ariq kovlaydi, ikkinchisi Mahinbonu saroyida otboqarlik qiladi. Masnaviyda, Shirin mamlakatiga kelgan Farhod va Shopur tog‘da ishlayotgan toshyo‘nuvchilarni ko‘radi. Farhod ularga yordam berib, ariqni qisqa fursatda tayyor qiladi. Masnaviyda rassom Shopurning tog‘da nima ish qilganligi haqida gapirilmagan, lekin Xusrav Arman yurtiga urush e’lon qilganda Farhodning yonida turadi, Farhod qal’aga bandi qilinganda oshiqlar o‘rtasida xat tashuvchi bo‘ladi.

10. Shirinning shaharga suv olib kelish istagi

Xalq dostonida Shirin tog‘dan shahardagi navvot solingan hovuzga suv va sutning muntazam oqib turishini xohlaydi. Mahinbonu uning istagini amalga oshirish uchun toshyo‘nuvchilarni qidiradi. Masnaviyda Shirin suvsiz dalalarga suv keltirishni orzu qiladi.

11. Farhod va Shirinning birinchi uchrashuvi

Xalq dostonida tosh kesish uchun saroya kelgan Farhod Mahinbonuning yonida turgan Shirinni ko‘rib hushidan ketadi. Masnaviyda Farhod Shirin bilan birinchi marta tog‘da uchrashadi va hayajonlanib hushidan ketadi.

12. Shopurning Eronni tark etishi

Xalq dostonida Shopur Eronni tark etib, hech kimga bildirmay yo‘lga chiqadi. Jo‘ramizning mamlakatiga yetib borib u yerda ham otboqarlik qiladi. Podshoh Jo‘ramizning o‘g‘li bilan do‘splashadi. Bu voqeal masnaviyda yo‘q. Shopur har doim Farhod bilan birga bo‘ladi.

13. Jo‘ramizning o‘g‘li Shirinni sevib qoladi

Xalq dostonida Shopur Jo ‘ramizning o‘g‘li shahzodaga Shirinning rasmini chizib, ko ‘rsatadi. Shahzoda Shirinni sevib qoladi. Shopur qirq kun muhlat so ‘raydi. Eronga kelib shahzodaning suratini uch marta chizib daraxtga osib qo ‘yadi. Kanizaklar Shirinning xayoli buzilmasin deb ikki marta rasmni yashirishadi. Uchinchi rasmni Shirin ko ‘rib qoladi va rasmdagi go ‘zal shahzodaga oshiq bo ‘ladi. Ikki oshiq bir-birini izlab yo ‘lga chiqadi va turli voqealarni boshidan kechirishadi. Bu voqealar masnaviyda yo ‘q.

14. Farhod va Shirin sevgisi

Xalq dostonida Farhod sevgida sobit inson, lekin Shirinni bunday deya olmaymiz. Dastlab oddiy toshyo ‘narning sevgisini tan olmaydi, Jo ‘ramizning o‘g‘li –shahzodaga ko ‘ngil qo ‘yadi. Farhodning ishini va o ‘ziga munosabatini ko ‘rgandan so ‘ng, uni sevib qoladi. Masnaviyda Farhod va Shirin asar oxirigacha bir-biriga sodiq qolishadi.

15. Shirinning Rum malikasiga uylangan Jo ‘ramiz o‘g‘liga yozgan maktubi

Xalq dostonida Shirin Rum sultonining qiziga uylangan Jo ‘ramizning o‘g‘liga, uning bevafo oshiq ekanini aytib, qoralovchi xat yozadi. Shahzoda Rum sultonining qizidan voz kecha olmaydi. Bu motiv Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostonidan o‘zlashtirilgan. Masnaviyda otasining g‘azabiga uchragan, Shiringa oshiq bo‘lishiga qaramay, Rum malikasiga uylangan shahzoda obrazi yo ‘q.

16. Xusravning Shiringa oshiq bo‘lishi

Har ikkala asarda Eron shohi Xusrav Shirinning ta’rifini eshitib, unga g‘oyibona oshiq bo‘ladi. Xalq dostonida *bir jodugar kampir*, masnaviyda vazir Buzurg Ummid Xusravga Farhoddan qutulishni maslahat beradi. Shirin rad javobini bergandan keyin Xusrav katta qo‘shin bilan bostirib keladi. *Xalq dostonida Xusrav Farhod bilan yuzma-yuz jang qiladi.*

17. Xusravning Farhodni huzuriga chaqirishi

Xalq dostonida Xusrav “Yonimga Shirin uchun kel” deb Farhodga xat yo ‘llaydi. Yoniga kelgan Farhodga tahdid qiladi, dag‘dag‘asi kor qilmaganini ko ‘rgach, hazillashganini aytadi. Xitoy xoqonidan qo ‘rqib, taslim bo ‘ladi. Ishingni tugatgach, Shiringa uylanishing mumkin, deb qaytarib yuboradi. Bundan ruhlangan Farhod yanada qat’iyat bilan

ishlashda davom etadi. Masnaviyda Xusrav Parvez Farhodni behush qilib huzuriga keltiradi. Uning Shiringa bo‘lgan pok va buyuk muhabbatini ko‘rib, hasaddan o‘rtanadi.

17. Farhodning suv yo‘lini ochishi

Xalq dostonida Farhod yetti yillik mehnatdan so ‘ng ariqni bitkazadi. Masnaviyda Farhod qisqa muddatda nafaqat suv olib keladi, balki Shirin uchun hovuz va toshqasr ham quradi.

18. Xusrav yana Eronga hujum qiladi

Xalq dostonida Farhod va Shirinning sevgisini ko ‘rgan Xusrav yana Shiringa erishishga qaror qiladi. Bir necha marta Mahinbonu shahriga hujum qiladi. Mahinbonu, Shirin va ularning kanizaklari jang maydonida yigitlar bilan bir safda turib jang qiladilar. Masnaviyda Xusrav Arman yurtiga hujum qiladi, lekin ayollar jangga kirmaydi.

19. Xusravning jodugar ayol yordamida Farhodni aldamoqchi bo‘lishi

Xalq dostonida Farhodni urush bilan yenga olmasligini anglagan Xusrav jodugar kampirdan maslahat oladi. Jodugar kampir Shirinning enagasi qiyofasida Farhodning oldiga keladi va Shirin o ‘ldi deb aldaydi. Farhod bu yolg‘onga ishonmaydi va jodugarni o ‘ldiradi. Masnaviyda esa jodugar, Xusrav talab qilganiday, “Shirin Xusravga turmushga chiqdi. O‘z yurtingga qaytib ket” deb aytishning o‘rniga, Shirinning o‘zini o‘ldirgani haqidagi yolg‘on xabarni yetkazadi. Hushidan ketib yiqligan Farhod o‘zini qattiq shikastlaydi va o‘ladi.

20. Farhod va Shirinning nikohi

Xalq dostoni Farhod va Shirinning to ‘yi bilan baxtli yakun topadi. Masnaviyda esa Shirin Farhodning jasadini quchoqlab jon beradi.

Qiyosiy tahlildan ko‘rinib turibdiki, Fozil shoir Navoiy dostoni sujetiga juda ko‘p o‘zgartirishlar kiritgan. Nizomiy dostonidan ham unumli foydalangan. Eng asosiysi, baxshi xalq og‘zaki ijodi an’alariga, xususan ertak va dostonlarning yakuniga sodiq qolgan holda Farhod va Shirinni o‘ldirmaydi, sevgi voqeasi baxtli yakun topadi.

3.2. Dostondagi obrazlar tavsifi

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li XX asrning buyuk dostonchisi, ulkan xalq shoiri edi. Undan yozib olingan dostonlar epik mazmunning mukammalligi, har bir tafsilotning san’atkorona ishlanganligi, badiiy mahoratning yuksak darajasi jihatidan o‘zbek xalq dostonchiligidagi alohida o‘rin tutadi. To‘ra Mirzayev ta’kidlaganidek, Fozil shoir doston sujeti qurilishining har bir epizodi o‘z o‘rnida bo‘lishiga, bir-biri bilan uzviy bog‘lanib, biri ikkinchisini taqozo etishiga, hatto kichik bir ifoda ham muayyan poetik vazifa bajarishiga alohida e’tibor bilan qaragan. Shunday asarlaridan biri “Farhod va Shirin” dostonidir. Fozil shoir bu dostonni ustozi Yo‘ldosh shoirdan o‘rgangan³⁸. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining tinimsiz izlanishlari, iqtidori tufayli aruzda yozilgan masnaviy mukammal xalq dostoni shaklini oldi. Buyuk baxshi kuylagan dostonning birinchi varianti 1937-yilda, ikkinchi varianti 1944-yilda yozib olingan.

Turk folklorshunosi Emina Bakar dostondagi obrazlarni uch guruhga ajratishni taklif qiladi: 1) bosh qahramonlar: Farhod, Shirin; 2) yordamchi qahramonlar: Mahinbonu, Chin xoqoni, Shopur; 3) raqib qahramonlar: Xusrav, Jo‘ramizning o‘g‘li, jodugar ayol³⁹. Bizningcha bu ro‘yxatga epizodik obrazlarni ham qo‘sish lozim: Jo‘ramiz, to‘rt yuz jangchi qiz, bog‘i payhon bo‘lgan boy, Rum malikasi va kanizaklar. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li Navoiy dostonidagi obrazlar sonini qisqartirish orqali voqealar rivojini tezlashtirdi, sujetni xalq dostonlari qolipiga moslashtirdi. Baxshining obraz yaratish mahorati esa quyidagi timsollarda o‘z ifodasini topdi:

Farhod Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li dostonidagi Farhod voqealar markazida turadigan bosh qahramon hisoblanadi. U yagona sevgisi Shiringa asarning boshidan oxirigacha sodiq qoladi. Maqsadga yetish uchun barcha qiyinchiliklarni yengadi, shubha qilish yoki tushkunlikka tushish unga yot. Har bir ishni aql tarozisiga solib ko‘radi, shuning uchun oldiga enaga qiyofasida kelgan jodugarning yolg‘onlariga ishonmaydi,

³⁸ Afzalov, Mansur. “Farhod va Shirin” dostonining xalq varianti. Nomzodlik dissertatsiyasi.- Toshkent,1950.- B.23.

³⁹Bakar, E. Fazıl Yoldaşoğlu’nun Ferhat ile Şirin hikâyesi üzerine bir inceleme. Yüksek lisans tezi.- Erzurum, 2019.- S.57.

yolg'onni kechira olmaydigan inson bo'lgani bois enagani chopib o'ldiradi va daryoga otadi. Navoiy yaratgan Farhod ham har tomonlama yetuk inson, faqat uning bir kamchiligi bor: haddan tashqari sodda, ishonuvchan inson. Mana shi ishonuvchanligi sababli halok bo'ladi.

Shirin Shirin - har sohada Farhodga munosib sevgili. Dostonda uning tengsiz go'zalligi jannatdagi hurlarga o'xshatiladi. Aqli, tarbiyali, bilimli, Vatani uchun jonini berishga tayyor mard qiz. Yigitlarga bas kela oladigan mohir jangchi. Ishonchli do'st, sadoqatli singil, xalqparvar rahbar. Faqat ishq borasida biroz tajribasiz. Jo'ramizning o'g'li – shahzodaning rasmiga boqib, bir ko'rishda sevib qoladi. Opasini aldab, shahzodani izlab yo'lga tushadi. Boshiga falokatlar tushsa ham, ahdidan qaytmaydi. Eronga qaytganida izlagan insoni Mahinbonu saroyida mehmon bo'lib yurganini ko'radi. To'rt yil mobaynida bir ish qilmay, o'yin-kulgi bilan mashg'ul bo'lgan, Eronga nima maqsadda kelganini unutgan shahzodaga tanbeh beradi. Shahzoda arazlab ketib qolganida uzr so'rab xat ham yo'llaydi. Shahzodaning sevgisi havas ekanini bilgach, e'tiborini Farhodga qaratadi.

Chin xoqoni Fozil shoир dostonida xoqon obrazi faqat dengiz to'fonigacha bo'lgan voqealarda faol qatnashadi. Keyingi voqealar halqasida ko'rinxaydi. Asarda xoqon haqida batafsil ma'lumot berilmaydi. Avval farzandsizlik izardiroblari, keyin farzand baxti tasvirlanadi. Xoqon Farhodda g'amginlik kasali boshlanganda tashvishga tushib, buning chorasini izlaydi. O'g'li Eron yurtiga otlanganida esa, ko'ziga toj-u taxti ko'rinxay, fidoyi ota sifatida unga hamroh bo'ladi.

Mahinbonu Eron hukmdori bo'lgan Mahinbonu donishmand, uzoqni ko'ra oladigan, bilimli, qat'iyatli ayoldir. U singlisi Shirin uchun jonini berishga tayyor. Xusrav bilan bo'lgan urushda qo'liga qilich olib maydonga tushadi. Unda alp ayollarga xos barcha fazilatlar mavjud. Fozil shoир Mehinbonu va Shirin obrazlari orqali eng qadimgi folklor namunalaridagi jangchi ayollar timsolini qayta tiriltiradi.

Shopur Dostondagi yordamchi obrazlar ichida eng murakkabi Shopur hisoblanadi. Iste'dodli rassom bo'lgan Shopur voqealar rivojida o'z qiyofasini bir necha marta o'zgartiradi. Dastlab Farhodga do'st qo'lini cho'zadi, undan tonib Jo'ramizning o'g'li bilan do'stlashadi. Shirinni

aldab Jo‘ramiz yurtiga jo‘natib yuboradi va yana o‘zi borib Shirinni zindondan qutqaradi. Fozil shoir Shopur obrazi orqali tinglovchini e’tiqodsiz, makkor, soxta do‘stlardan saqlanishga chaqiradi.

Xusrav Dostondagi Xusrav obrazi Navoiyning Xusraviga nisbatan faol harakat qiladi. Fozil shoir ham, Navoiy izidan borib, Xusravni salbiy obraz qilib tasvirlagan. Xusrav – irodasiz, ichi qora inson. Farhod bilan uchrashgach, avval yuzma-yuz gaplashganda, keyin jang maydonida o‘zining ojizligini, Farhodning har tomonlama undan ustunligini anglab yetadi. Uning pok sevgisiga hasad qiladi. Erkak boshi bilan ayollarga qarshi chiqishga or qilmaydi.

Jo‘ramizning o‘g‘li Dostondagi yorqin tiplardan biri – Jo‘ramizning o‘g‘li shahzodadir. Fozil shoir bu obrazni yaratishda Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostonidagi motivlardan foydalangan. Nizomiy dostonining bosh qahramoni Xusravning o‘smirlilik davridagi erkaliklari, Shopurdan Shirin ta’rifini eshitib g‘oyibona oshiq bo‘lishi, chashma boshida Shirinni tanimay o‘tib ketgani, Mahinbonu saroyida uzoq muddat mehmon bo‘lishi, Shirinning achchiq gaplaridan xafa bo‘lib yurtiga qaytishi, Rum Qaysarining qizi Maryamga uylanishi voqealari baxshi tomonidan o‘ylab topilgan va doston sujetiga kiritilgan shahzoda obraziga ko‘chirilgan. Shahzoda - yengil hayotga o‘rgangan, bo‘sh vaqtini ovda yoki kanizaklari bilan maishatda o‘tkazadigan tanbal inson. Birov kamchiliklarini yuziga aytsa, unga yoqmaydi, birdan arazlab qoladi. Shirindan tanbeh eshitgach, to‘rt yil mehmon bo‘lgan xonodon egalari bilan xayrashmay ketib qoladi. Rum o‘lkasiga borib, podshoh saroyida yashaydi, uning yordami bilan otameros taxtni qaytarib olgach, Shirinni unutadi. Rum podshohining qiziga uylanadi. Shirindan kelgan sitamli maktubni o‘qib ta’sirlanadi, lekin rashkdan janjal ko‘targan xotiniga qarshi chiqolmaydi. Jo‘ramizning o‘g‘li har taraflama zaif, tanbal, dangasa inson bo‘lgani uchun Shirin undan yuz o‘giradi, hayotini mehnatkash va halol inson – Farhod bilan bog‘laydi. Shahzoda Farhodning eng zaif raqibi hisoblanadi.

Jo‘ramiz – adolatli, xalqparvar, qattiqqo‘l podshoh. Uning shahrida qonunlarga hamma birday itoat etadi. O‘g‘li kanizaklari va xizmatkorlari bilan bir boyning chorbog’iga kirib, ertalabgacha maishat qilgani, bog‘

egasiga moddiy zarar yetkazganini eshitib, qonunni buzganlarni ayovsiz jazolaydi: otlarning oyog’ini, qancha odamlarning qulqoq-burnini kestiradi, nechalarni o‘ldirib yuboradi; kanizak xotinlarning sochini kestirib, chaqqon qilib har kimga berib yuboradi. Xalqqa ibrat bo‘lsin, deb shahzodani zindonga soldiradi. Jo’ramiz obrazining proobrazi Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostonidagi Xusrav Parvezning otasi Xurmuz hisoblanadi. Xurmuzning ismi Jo’ramiz deb o‘zgartirilishida ham chuqur ma’no bor: xalq fuqaroparvar, adolatli shohni orzu qilar, uning o‘ziga o‘xshash kishilarga bir jo‘raday bo‘lishini istar edi⁴⁰.

Jodugar kampir – Xusravning maslahatchisi bo‘lib, bu obraz dostonda quyidagicha tasvirlanadi: Xusravning... ayyor, dunyodagi bo‘lgan ishdan xabari bor, manglaylari tirishgan, kecha-kunduz ko‘nglida xudo bilan urishgan, bir kampir ayyori bor edi.

Obrazlar tavsifidan ko‘rinib turibdiki, Fozil shoir Navoiy dostoni sujetiga juda ko‘p o‘zgartirishlar kiritgan, yangi obrazlar olib kirgan. Nizomiy dostonidan ham unumli foydalangan. Eng asosiysi, baxshi xalq og‘zaki ijodi an’analariga, xususan, ertak va dostonlarning yakuniga sodiq qolgan holda bosh qahramonlarni o‘ldirmaydi, sevgi voqeasi baxtli yakun topadi.

3.3. Dostonning badiiy xususiyatlari

“Farhod va Shirin” qissasi tadrijini o‘rgansak, sujet dastlab diffuz holatni boshidan kechirganini ko‘ramiz. Mif shaklida yaratilgan epik asar sujeti afsonaga, afsonadan rivoyatga, keyin ertakka va dostonga ko‘chgan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li o‘zigacha yaratilgan xalq dostonini Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostonidagi ayrim motivlar bilan boyitdi va “Alpomish”ga o‘xshagan mukammal, ishqiy-qahramonlik dostonini yarata oldi. U mohir va tajribali baxshi bo‘lgani uchun asardagi voqealarni bayon qilishda shoshilmaydi, har bir obrazning tashqi qiyofasi, ichki dunyosi, tabiat manzaralari,

⁴⁰ Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. - Toshkent: 1974.-B.286

voqealarni izchil ta'riflaydi. Tinglovchi ko'z o'ngida jonli voqealar tasvirini hosil qiladi⁴¹.

“Farhod va Shirin” dostoni mubolag‘a, o‘xshatish, sifatlash, tazod kabi badiiy tasvir vositalariga juda boy. **Mubolag‘a** xalq dostonlarida asosiy she’riy san’at hisoblanadi. Bu asar xarakteridan, voqealarni tinglovchiga yetkazish maqsadi va usulidan kelib chiqadi.”Farhod va Shirin” dostonida mubolag‘a san’ati “Alpomish” dostonidagichalik ko‘p qo‘llanmagan bo‘lsa-da, asarda mubolag‘aning barcha turlarini uchratish mumkin.

Tablig‘: “Oynada ko‘rgan bog‘, shu taxti chorbog‘, shu oynayi Iskandarda ko‘rgan qizni ko‘rib, Farhod tanib, hushidan ketib qoldi “ (127 b). Farhod Shirin sharobini ichib, mast bo‘lib otni tepasiga qo‘yib, Shirin otning ustida, “Oshig‘im tog‘larni tomosha qilsin”, - deb ko‘tarib chiqib ketdi.(193-b)

Ig‘roq: “Shirin yigitlarga qand-novvot solib, har kun bir kosa sharob berardi. Ming yigit, to‘rt yuz qiz qo‘liman (sharob) berib, yetkizmaklik juda mushkul bo‘lib qolardi” (125-b).

G‘uluv:

Hamla qilgan qora devni o‘ldirdi,
Qancha ajdarholar girdini tutdi.
O‘t sochib Farhodni o‘rtaga oldi,
Olovning ichida bul Farhod qoldi,
Sochgan olov bunga ta’sir qilmadi.
Sochgan o‘tlari bu o‘ziga dushman,
O‘z o‘tiga o‘zi ko‘p halok bo‘lgan.
Bu olovda kuyib ajdarho o‘lgan,
Olovdan salomat chiqdi Farhodxon. (104-b)

Istiora dostonda eng ko‘p qo‘llangan san’atlardan biri hisoblanadi:
Tushibdi boshima qayg‘uli *tuman*,
G‘ulu zanjir bo‘ynimdadir, otajon.

O‘xshatishning barcha turlaridan foydalanilgan:
Sharob berib bundan ketib,

⁴¹ Sabitova, Tojixon,O’zbek xalq dostonlarining nazariy asoslari va badiiyati.Monografiya.-T.:”Firdavs-shoh”,2022.-B.57.

Qoshimdan *bulbulday* uchdi.(134-b)

Tosh ag‘darib bu kesmaklik,

Gul tergandan oson menga. (131-b)

G‘ayratim ko‘p, o‘zim - *olmos*,

Xizmatimni qilmasam bo‘lmas.

Sifatlash:

Barining sardori bu Shirinjon-da,

So ‘zi shakar, qand-u labi bol-da. (136-b)

Tazod:

Ishqida yurib bo‘zlasam,

Kecha-kunduz men izlasam.

Osmomonning *ostida*, yearning *ustida* Shirinday suluв qiz bo‘lmaydi’.

(142-b)

Ta’did:

Sher-u qoplon, necha yo‘lbarslar,

Qulon-bulon yurgan vahshiy jondorlar,

Har zamon Farhodga hamdam bo‘ladi. (137 - b)

Irsoli masal: “Makka borgan qilar ekan hajini, Choldevorda yotgan ko‘rar bo‘jini”; ”Qol yugurigi oshga, til yugurigi boshga”; ”Uzimingni ye, bog‘ingni sorab, nima ishing bor?”.

Tajohili orif:

Qiz xalqi o‘z joyida turmaymi?

Oshiq bo‘lsa, erkak izlab bormaymi?

Sening bu yurishing ayb bo‘lmaymi?

Sendayin beega narsa o‘lmaymi? (156-b)

Takrorlar:

Xisrav aytur, poyomimni bilsin, deb,

Ishlab yotsa bul o‘rnidan tursin, deb,

Xayollab qolmasin bunda yursin, deb,

Shirinning hurmati Farhod kelsin, deb,

Oydayin Shirinni shaf‘e keltirdim. (189-b)

Tajnis:

Shirinning yoniga Farhod yetishdi,

Mehnat orqasida sevgisin *topdi*,

Mehnatiga ixlos qilib bu Shirin,
Farhodni o‘ziga munosib *topdi*.(213-b)
topdi I –erishdi, qo‘lga kiritdi; *topdi* II –bildi, sanadi.

Ma’viza san’ati ham qo‘llangan. Masalan, ovga Mahinbonuning otini minib chiqmoqchi bo‘lgan Shiringa malikaning:” Yosh bolasan, o‘zing halok qilmagin, Bu hayvonni o‘zgalarday ko‘rмагин” deb boshlanuvchi e’tirozi nasihat tarzida bayon qilinadi.

Ma’lumki, dostonlarning kompozitsion tuzilishini o‘rni bilan almashib turadigan nazmiy va nasriy matnlar tashkil etadi. Dostonlardagi she’rlar, asosan, 7, 8 va 11 bo‘g‘inli barmoq vaznida yoziladi. Turoqlarning o‘zgarib turishi, band tuzilishi va qofiyalanish sistemasida ham o‘ziga xoslik mavjud. 7, 8 bo‘g‘inli vaznlar voqealarning jadal rivojlanishi tasvirida qo‘llanadi. Biz o‘rganayotgan dostonda ham qahramonlarning safarga chiqishi, jang manzaralari, qizlarning sayribog‘ yurishlari, xabar va chaqiriqlar, ziyofatlar tasviri, kuchli iztiroblar qisqa vaznda berilgan. Masalan, daryodagi bo‘ronda Farhoddan ajralgan Chin xoqonining qayg‘usi 8 bo‘g‘inli misralarda berilgan:

Motam bo‘ldi kulboxonam.
Qani, mening Farhod jonim,
Dunyoga kelgan mehmonim,
Bolam deyman, men yig‘layman.

Tinch, ohista harakatlar, monolog va dialoglar, ta’rif – tavsiflar 11 bo‘g‘inli vaznda beriladi:

Har tarafdan mardikorni yig‘diring,
Dushman bo‘lsa yongan o‘tda kuydiring.

“Farhod va Shirin” dostonining nazmiy qismi asosan 8 bo‘g‘inli barmoq vaznida yozilgan. Bunday holat, bizningcha, qahramonlarning xatti-harakati va holati bilan bog‘liqdir.

Dostonning nasriy qismida saj’ va ta’did san’atlari; sodda gap va bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar ko‘p qo‘llangan: ”Shunda momosi aytdi: ”Ul Farhod bir majnunsifat odam, birovning gapini qulog‘iga olmagan, o‘z bilganidan qolmagan, hoqoni Chinning podsholik davlatini pisand qilmagan, ul ham sendan kam emas. Mardikor sifatida Shirinning ishqida mehnatda. Senday podsholardan ul qo‘rqib irkilib turmas. O‘limdan hech

yuz qaytarmas”. An’anaga ko‘ra, nasriy qismda saj’ asosiy tasvir vositasi hisoblanadi: “Shirin Farhoddan *xabar olib*, har kuni *ishga solib*, bir tosh yo‘ldagi hovuzni tuzatdi (181); Shunda bir jodugar *ayyor*, dunyodagi bo‘lgan ishdan xabari *bor*, manglaylari *tirishgan*, kecha-kunduz ko‘nglida xudo bilan *urishgan*, bir kampir ayyori bor edi” (185-bet).

Dostonda she’rning musiqiyligini, ta’sirchanligini kuchaytirishda katta ahamiyat kasb etuvchi qofiyaning bir necha turi mavjud. Bular quyidagilar:

1. Mutlaq qofiya dostonda eng ko‘p qo‘llangan qofiya turi hisoblanadi.

Gul termakday menga *toshlar*,
Shirin xizmatini *boshlar*,
Ko‘rgan vaqtida ko‘ngling *xushlar*,
Ketdingmi dilbar, yaxshi bor.

2. Muqayyad qofiya:

O‘ngu so‘lni olar *tumon*,
Farhod bermas sira *omon*,
Dushmanlarga qayg‘u-*tumon*,
Farhod qildi *oxirzamon*.

3. To‘liq qofiya:

Qaytay, yig‘lay, haqqa yetkay *nolam*, deb,
Murodga yetmagan Shirin *bolam*, deb.

4. To‘liqsiz (och) qofiya:

Bul so‘zni aytib bul zamon *Farhod*,
Kampirni qo‘ymasman dedi *salomat*.

Ba’zi o‘rinlarda baxshi radifni qofiya o‘rnida ishlatadi yoki ohangdoshlikni har xil o‘zakdan keyin keladigan bir xil shakl yasovchi qo‘shimchalar yordamida hosil qiladi:

Asli bilsang Shirin senman *yurmaydi*,
Sendaylarni o‘ziga do‘s *bilmaydi*.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan “Farhod va Shirin” sujetining yozma adabiyotdagi shu mavzudagi dostonlar sujeti bilan o‘xshashligi bor bo‘lsa-da, ifoda yo‘sini xalq dostonlari an’anaviy uslubi va poetik shakllariga to‘liq javob beradi. Uni “Alpomish”day shohasar bilan

qiyoslab, baxshi mahoratiga past baho berish noto‘g‘ri bo‘ladi. “Kuntug‘mish”, “Ravshanxon” kabi ishqiy-sarguzasht dostonlardan o‘ta qiziqarli va murakkab sujeti bilan ajralib turuvchi bu doston keyingi tadqiqotlarda haqqoniy bahosini topadi, degan umiddamiz.

XULOSA

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizday, turkiy yozma va og‘zaki adabiyotda “Farhod va Shirin” qissasining turlicha talqin va variantlari mavjud. Mazkur sevgi qissasiga qo‘l urgan har bir shoir va baxshi, ertakchi va qissago‘y o‘zidan oldin yaratilgan manbalarni chuqur o‘rgangan, xayol elagidan o‘tkazgan. O‘zi mansub davrning muammolarini badiiy va ramziy timsollarda tasvirlab, Farhod obrazini yanada takomillashtirib borganlar. Ming yil mobaynida Farhod kelib chiqishi noma’lum toshyo‘nardan dard, majoziy ishq, komil inson, majzubi solik, mehnat odami timsoliga aylandi. Yozma adabiyotda Farhod obrazining oliy takomilini Alisher Navoiy yaratdi va majoziy ishqning qay tarzda haqiqiy ishqqa aylanish jarayonini Farhod taqdiri orqali ko‘rsatib berdi. Og‘zaki adabiyotda esa Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li yaratgan Farhod obrazi pok muhabbat va sadoqat ramziga aylandi. O‘zbek baxshisi yaratgan “Farhod va Shirin” dostoni o‘zbek va turk olimlari tarafidan Sharqda mashhur va sevimli bo‘lgan sevgi qissasining yangicha talqini sifatida e’tirof etildi.

Ushbu ishimizda turkiy og‘zaki adabiyotdagi “Farhod va Shirin” qissasining har xil janrda yaratilgan variantlari, xususan, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan dostonni qiyosiy o‘rganib, shunday xulosaga keldik:

1. Farhod nomi bilan bog‘liq o‘zbek va turk afsonalari, ertaklari, kitobiy dostonlari yozma adabiyotdagi variantlaridan quyidagi belgilariga ko‘ra farqlanadi: a) Farhod dev, cho‘pon, dehqon, rassom Behzodning naqqosh o‘g‘li yoki Kunchiqar mamlakati shahzodasi sifatida beriladi; b) Farhod ko‘kka o‘zi irg‘itgan xarsangtosh yoki tesha tagida qolib halok bo‘ladi; o‘zbek mifologiyasida xarsangtoshga aylanib qoladi; Fozil baxshi kuylagan dostonda tirik qoladi va Shiringa uylanadi.

2. Ertaklar va afsonalarda Shirin Farhodning o‘limidan keyin o‘zini doim yonida olib yuradigan xanjari bilan o‘ldiradi yoki soyga aylanadi. Fozil baxshi variantida, Karago‘z va o‘rta o‘yin tomoshalarida Farhodga turmushga chiqadi.

3. Voqealar turli davrlarda ro‘y beradi; noma’lum davrda; Xurmuzshoh davrida; Fozil shoir yaratgan dostonda Xusrav Parvez hukmronlik qilgan davrda.

4. Armanzamin malikasi Mehinbonu afsonalarda qahri qattiq Xuroson malikasi yoki Erzen hokimi Mehmene Bonuga, Bekobod sultoni Gulchehrabonuga aylangan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida Eron malikasidir.

5. Ertaklarda va turk xalq dostonida Erzen shahrining hokimi Mehmene Bonu Farhodni sevib qoladi va singlisining dushmaniga aylanadi. O‘zbek xalq dostonida Mehinbonu Shirinning Farhodga ko‘ngli borligini eshitib, to‘yga tayyorgarlikni boshlab yuboradi.

6. Soya teatri va o‘rta o‘yin tomoshalarida Farhod o‘lmaydi: vaqtida yetib kelgan Shirin Farhodni xudkushlikdan saqlab qoladi. Fozil shoir dostonida ham Farhod omon qoladi: shumkampirning yolg‘on xabar olib kelganini Farhod sezadi va tosh qo‘poradigan asbobi bilan uning boshini majaqlab tashlaydi.

7. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostonlaridan ta’sirlangan baxshi ikki asar sujetidagi ayrim voqealarni omuxta qilib, o‘zidan ham yangi motivlar va qahramonlarni qo‘shib, o‘ziga xos sevgi qissasini yarata oldi. Shu sababli dostonda ham klassik adabiyot, ham xalq adabiyoti an’alarining izlarini ko‘rishimiz mumkin.

8. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan bu ishqiy-qahramonlik dostoni kompozitsion tuzilishi, poetik shakllari bilan yozma va og‘zaki adabiyot o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Normativ huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.

2. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – ҳалқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. (Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси) // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017. – 4 авг.

3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи // Халқ сўзи, 2017 йил, 20 сентябрь.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

1. Afzalov M. “Farhod va Shirin” dostonining xalq varianti. Nomzodlik dissertatsiyasi.- Toshkent,1950.

2. Алиев Г. Легенда о Хосрове и Ширин в литературах народов Востока - Москва ,1960 .

3. Alptekin, A. Berat. Halk hikâyelerinin motif yapısı (6. Baskı). Ankara: 2013.

4. Annakulova D. Baxshi shoirlar Ergash Jumanbulbul o‘g‘li va Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining o‘zbek dostonchilik mакtabida tutgan o‘rni. Oriental Art and Culture, Volume 3/ December 2022.-P. 123-131.

5. Bakar, Emine. Fazil Yoldaşoğlu’nun Ferhat ile Şirin hikâyesi üzerine bir inceleme. Yüksek lisans tezi.- Erzurum, 2019.

6. Эркинов С. Навоий «Фарҳод ва Ширин»и ва унинг қиёсий таҳлили.- Т., «Фан», 1971.

7. Eshonboyev A. “Xamsa” va adabiy retsepsiya muammosi// O‘zbek tili va adabiyoti, 1-son, 2020.

8. Erali B. Majoziy muhabbat haqiqatlari. – Т.: Akademnashr, 2015.
9. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. Тошкент: “Фан” нашриети, 2007.
10. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari.-Т.: 2010.
11. Комилов Н. Тасаввуф.- Тошкент: “Movarounnahr” нашриети, 2009.
12. Луконин В. Г. Древний и ранне-средневековый Иран, М.: Наука, 1970.
13. Мусаева Ф. В. *Выбор Низами Гянджеви: Farhad и Xosrov*, Вчені записки ТНУ імені В. І. Вернадського. Серія: Філологія. Журналістика - Том 33 (72). № 1. Ч. 3. 2022.
14. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. - Toshkent: 1974.
15. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. – Т.: 1976.
16. Mallayev N. ”Farhod va Shirin”ning Umar Boqiy tomonidan ishlangan xalq kitobi variant// Adabiy meros, 1973, 3-son, B. 135-146.
17. Raxmanova N. O‘zbek va turk folklorida Farhod obrazı. «Филологиядағы фундаменталь зерттеулер және оқытудың инновациялық мүмкіндіктері» атты халықаралық ғылыми-әдістемелік онлайн және оффлайн конференцияның материалдары. Нөкіс: НМПИ баспасы, 2022. S.145-148.
18. Raxmanova N. Turkiy adabiyotdagı Farhod obrazining genezisi va tadriji. X Халықаралық Түркология конгресі (Қазіргі заманғы түркология: ғылыми парадигмалары және пәнаралық сипаты) 17-20 қазан 2023, Түркістан/ Казақстан. Материалдардың жинағы – С.241-245
19. Sabitova T. O‘zbek xalq dostonlarining nazariy asoslari va badiiyati. Monografiya. - Т.: ”Firdavs-shoh”, 2022. - B.57.
20. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Т. : ”Musiqa”, 2010.
21. Saidov M.S. O‘zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat masalalari.-Т.: 1969.
22. Солиҳова, Ҳ. Алишер Навоий издошлар. - , Тошкент: Ғафур Гулом нашриети, 2005.
23. Tavukçu O.K. Hüsrev ü Şirin konulu eserlerde esas kahraman olarak Hüsrev veya Ferhad'in tercih edilme sebepleri, A.Ü.Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi. Sayı: 14. 2000.

24. Timurtaş F. K. Türk edebiyatında Hüsrev ü Şirin ve Ferhat ü Şirin hikayesi. Türk dili ve edebiyatı, Cilt: 9, 1959.
25. Tojiboyeva O. Mansur Afzalovning ilmiy faoliyatı xususida. “O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. 2023-yil 20-may. - B.453-456.
26. Толстов С.П. Древний Хорезм.- Москва, 1948.
27. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб.- Т. , 1964 .
28. Türkben Aydin, F. Nizâmî-yi Gencevî'nin Hüsrev u Şîrîn ile Leylâ vu Mecnûn eserlerinde aşk tasavvuru.NÜSHA. Cilt: 23 Sayı: 56, 2023.
29. Ust S. Hüsrev, Şirin ve Ferhad kahramanları üzerinde. A.Ü.Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi. [TAED] 51,Erzurum, 2004.
30. Хасавнек А.А. Поэма Ахметзяна Тубыли «Повествование о небезызвестном Фархаде и его возлюбленной Ширин», Вестник Северо-Восточного федерального университета имени М. К. Аммосова: Серия Эпосоведение, № 3 (19), 2020.

III. Manbalar

31. Алишер Навоий. Хамса. –Т.: Наврӯз, 2019.
32. Алишер Навоий. МАТ, Йигирма жилдлик, 8-жилд. – Т.: Фан, 1991.
33. Алишер Навоий. Махбуб ул-кулуб.- Тошкент: Faafur Gulom нашриети, 1983.
34. Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик. 14-том.- Тошкент: Faafur Gulom нашриети, 1967.
35. Фитрат, Абдурауф . Танланган асарлар - Т.: Маънавият,2000
36. Yo‘ldosh o‘g‘li, Fozil. Farhod va Shirin. (Yozib oluvchi: Buyuk Karimov; nashrga tayyorlovchi: M.I. Afzalov). - Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1966.

37. Yo‘ldosh o‘g‘li, Fozil. Jizzax qo‘zg‘oloni.
www.ziyouz.com.kutubxonasi

38. Shayx Nizomiy Ganjaviy. Xusrav va Shirin. Jamol Kamol tarjimasi. -T., 2018, 435 6.

39. O‘zbek xalq dostonlari, 1-2 tom. – T.: “fan”, 1956-1957.

IV. Internet saytlari

1. <https://lex.uz/docs>
2. <https://www.yoshlarovozi.uz>
3. <https://tafakkur.net/farhod-va-shirin/xalq-ogzaki-ijodi.uz>
4. <https://www.turkedebiyati.org/ferhat-ile-sirin-efsanesi/>
5. <https://kh-davron.uz/kutubxona>
6. www.ziyouz.com.kutubxonasi

NAFISA RAXMANOVA, ILHOMJON ISMATILLAYEV

**TURKIY O‘G‘ZAKI ADABIYOTDA
“FARHOD VA SHIRIN”NING YANGICHA
TALQINI**

Monografiya

Toshkent
“Firdavs-Shoh”
2024